

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK**

RAHIMOVA MUSHARRAF UKTAMOVNA

Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida umuminsoniy qadriyatlar talqini

5A 120101 - Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
f.f.n. Matkarimova S.**

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Alisher Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlarning manbalari va muhim xususiyatlari.	
1. Alisher Navoiy ijodidagi umuminsoniy qadriyatlarning manbalari.....	9
2. Navoiyning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati.....	15
II bob. Navoiy talqinida umuminsoniy qadriyatlar – insoniylik mezon	
sifatida	
1. Iymon – insoniylik nishonasi	22
2. Xalqparvarlik – eng oliy qadriyat.....	27
III bob. “Xamsa” da umuminsoniy qadriyatlar targʻibi.....	
1. “Xamsa”da ijtimoiy adolat, tenglik va tinchlik, shaxs erki masalasi	34
2.“Farhod va Shirin”da doʻstlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat tarannumi.....	52
3. “Hayrat ul-abror”da axloqiy qadriyatlar: hayo, vafo, saxovat.....	65
Xulosa.....	73
Adabiyotlar roʻyxati.....	78

KIRISH

O‘zbek xalqining tarixan rivojlanib kelgan mumtoz adabiyot namunalari shaklan va mazmunan badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu meros milliy madaniy merosimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi: “Birinch navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish”. [III.7, 68]

Xalqimizning ma’naviy boyligi sifatida oldingi qatorda turuvchi Navoiy asarlari bu jihatdan alohida e’tiborga loyiq. Jamiyatimizdagi chuqur o‘zgarishlar, demokratik islohotlar hayotimizning hamma jabhalarida, shuningdek, ma’naviyatimizda tub sifat o‘zgarishlarni sodir qilmoqda. Bunda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin nomoyon qilish kabi qadriyatlarga asoslanishi nazarda tutilmoqda. Bu esa o‘z navbatida Markaziy Osiyo xalqlari uzoq tarixiy taraqqiyot davrida yaratgan ma’naviy qadriyatlarga yangicha yondashishni, qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Zero, Markaziy Osiyo xalqlari boy ma’naviy merosga ega. Vatanimiz azaldan bashariy tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo‘shib kelgan.

Mavzuning dolzarbligi. Qadimiy qadriyatlarimizni bilmay turib, hozirgi zamon milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning mohiyatini, rivojini va kelajakdagi istiqbolini ko‘ra olish qiyin. Bu o‘z navbatida Navoiyning umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini chuqur o‘rganishni taqozo qiladi. Biroq Navoiy asarlarida, xususan, “Xamsa”sida umuminsoniy qadriyatlar talqini masalasi adabiyotshunoslikda hanuzgacha maxsus o‘rganilgan emas. Vaholanki, Navoiy asarlarida umuminsoniy qadriyatlarning har biriga alohida katta e’tibor beriladiki, bu insonlar uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Qadimiy qadriyatlar haqida, xususan, umuminsoniy qadriyatlar haqida

mushohada yuritish Navoiy ijodi va faoliyatining markaziy mavzularidan biri sanaladi. U bu mavzuni yuksak darajadagi shoirona til vositasida goho soʻf izohlar, goho muayyan nazariy tushunchalarni majozan ifoda etuvchi timsol – istilohlar va boshqa qator badiiy usullar orqali aks ettirgan.

Navoiy asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarni oʻrganish bugungi kunda yoshlarni milliy istiqlol gʻoyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, burchga sadoqat, mehr-muhabbat tuygʻularini kamol toptirishda yosh avlod qalbida masʼuliyat hissini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilashga asos boʻladi. Navoiyning har bir asarida oʻziga xos uslubda bayon etilsada, mohiyat eʼtibori bilan bir butunlikni tashkil etib, muayyan tizimga egadir. Xususan, Navoiyning “Xamsa”, “Xazoyin-ul maoniy”, “Mahbub-ul qulub” va boshqa asarlarida bu mavzu oʻzining butun koʻlami va koʻpqirraligi bilan keng miqyosda toʻla aks etgan.

Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda koʻp qirrali mavzu boʻlganligi uchun bir tadqiqot ishi doirasida uning barcha jihatlarini qamrab olish imkondan tashqari holdir. Shu bois bu ishimizda uning iymon, saxiylik, adolat, doʻstlik, mehnat, atrof-muhit muhofazasi, jamiyatlardagi urushlarni bartaraf etish hamda xalqlar oʻrtasida tinchlik va ahillik oʻrnatish, hayo, vafo, halollik kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar talqinining muhim tomonlarini yoritishga harakat qilamiz.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Navoiy ijodi boʻyicha qilingan ishlar amalgam oshirilgan boʻlsada, uning asarlarida, xususan, “Xamsa”sidagi umuminsoniy qadriyatlar talqini masalasiga adabiyotshunoslikda yetarlicha eʼtibor qaratilmagan. Ilmiy adabiyotlarda Navoiy ijodi badiiyat, shakl, janrlar, badiiy mahorat nuqtai-nazaridan koʻplab adabiyotshunos olimlar tomonidan jiddiy tekshirilgan, ilmiy tadqiq etilgan.

Adabiyotshunos N.Mallayev “Navoiy va xalq ijodiyoti”, “Soʻz sanʼatining gultoʻji” va boshqa asarlarida Navoiyning axloqiy qarashlarini tadqiq qilib, uning taʼlim-tarbiyaviy ahamiyatini kengroq yoritib berishga harakat qiladi.

Shuningdek, adabiyotshunos A.Abdugʻofurovning “Buyuk beshlik saboqlari”, “Odil, orif, oqil”, A.Hayitmetovning “Alisher Navoiy ijodida umumbashariy qadriyatlar masalasi”, A.Hayitmetov, B.Zohidovlarning “Navoiy va ijod saboqlari”, T.Jalolovning “Xamsa talqinlari”, I.Haqqulovning “Tasavvuf va sheʼriyat”, A.Qayumovning “Alisher Navoiy”, N.Komilovning “Tasavvuf va komil inson axloqi”, M.K. Oripovning kitob va tadqiqotlarida Navoiyning insonparvarlik gʻoyalarida aks etgan “muhabbat”, “adolat” va “inson” haqidagi qarashlarini hozirgi davr nuqtai-nazaridan talqin qilishga harakat qiladilar. A.A.Xuseynova esa oʻzining “Abdurahmon Jomiy dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar” nomli tadqiqotida mutafakkir dunyoqarashidagi “adolat”, “muhabbat”, “doʻst” singari qadriyatlarni tadqiq etib, bu qadriyatlar Navoiy dunyoqarashida ham oʻziga xos xususiyatlarga ega ekanligini koʻrsatib berishga harakat qildi.

Shuni taʼkidlab oʻtish kerakki, adabiyotshunoslikda Alisher Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar talqini masalasi mavzusida maxsus ilmiy ish qilingan emas. Navbatdagi vazifa Navoiy “Xamsa”sidagi umuminsoniy qadriyatlar talqinini oʻrganilishini yanada kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Navoiy “Xamsa”sidagi umuminsoniy qadriyatlar talqini masalasining asosiy jihatlarini oʻrganish, ularning mohiyati, ahamiyati va gʻoyaviy manbalarini koʻrsatib berishdan iborat.

Ushbu maqsadni yuzaga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilab oldik:

- Navoiy dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar rivojining asosiy manbalari va eng muhim xususiyatlarini koʻrsatib berish, ularni Oʻzbekiston xalqining rivojlanib borayotgan milliy va maʼnaviy qadriyatlari bilan oʻzaro munosabatini oʻrganish.
- Navoiy dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishida islom va islomiy taʼlimotlarning xususiyatlari, oʻrni va taʼsirini aniqlash.

- Navoiy talqinida iymon-insoniylik nishonasi ekanligini tahlil etish.
- Xalqparvarlik – eng oliy qadriyat ekanligini ochib berish.
- “Xamsa”da ijtimoiy adolat, ijtimoiy tenglik va shaxs erki masalasini yoritish.
- “Xamsa”da do‘stlik, tinchlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat tarannumini keng tahlilga tortish.
- “Xamsa”da axloqiy qadriyatlar: hayo, vafo, rostgo‘ylik, saxovatni umuminsoniy qadriyatlar sifatida tadqiq qilish.
- Navoiy targ‘ib-tashviq qilgan umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi zamon dunyo ahli ma’naviyatidagi o‘rni va rolini ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Alisher Navoiy “Xamsa”sida umuminsoniy qadriyatlar talqinining ilk marta, yaxlit holda tahlil etilayotgani dissertatsiyaning ilmiy yangiligini tashkil etadi. Navoiy “Xamsa”sidagi umuminsoniy qadriyatlar ko‘pdan beri adabiyotshunoslar diqqatini tortgan bo‘lsa ham, hozirgacha chuqur o‘rganilmay kelmoqda. Shu jihatdan uni tadqiq etish, kelajakda umuminsoniy qadriyatlar bo‘yicha izlanishlarning davom etishiga rag‘bat berishi bilan ham muayyan ilmiy qimmat kasb etadi. Shuningdek, Navoiy ijodida zikr etilgan umuminsoniy qadriyatlar talqinining asosiy qirralari, ularning kelib chiqishi va eng muhim xususiyatlarining tahlil qilinishi va batafsil yoritilishi ham tadqiqotning ilmiy qimmatini oshiradi.

Dissertatsiyada hozirgi kunlarda eng dolzarb muammo – atrof-muhitni muhofaza qilish, jamiyatda tinchlik o‘rnatib, urush va mojarolarni bartaraf etish kabi muammolar Navoiy ijodi bilan bog‘liq holda o‘rganilib, ularni Markaziy Osiyoning hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyoti uchun amaliy ahamiyati nuqtai-nazaridan tahlil qilindiki, bular ham muhim ilmiy yangiliklardir.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dastavval unda o‘zbek adabiyotining, xususan, Navoiy ijodi bo‘yicha yetarlicha o‘rganilmagan dolzarb muammolardan biri – umuminsoniy qadriyatlar talqinining tadqiq

etilgani bilan izohlanadi. Dissertatsiyaning tahlil va xulosalari Navoiy ijodining xususan, “Xamsa” asarining yangi qirralarini chuqurroq bilishga, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini, ularning inson hayotida tutgan o‘rnini keng tasavvur qilishga, anglab yetish ishiga xizmat qiladi. Alisher Navoiyning umuminsoniy qadriyatlar rivojiga qo‘shgan hissasi, xususan Markaziy Osiyo madaniyati tarixida tutgan o‘rni va rolini ko‘rsatuvchi muhim xulosalar ham ilmiy qimmat kasb etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakulteti uchun O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidan darslik, qo‘llanma va ma’ruza matnlari tayyorlashda “Navoiy poetikasi” kabi maxsus fanlardan mashg‘ulotlar o‘tkazishda bitiruv malakaviy va kurs ishlari yozishda o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘qitish jarayonida qo‘shimcha material sifatida foydalanishda ko‘rinadi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida ifodalangan umumbashariy qadriyatlar belgilaydi. Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibiga kirgan “Hayrat ul-abror”, “Sabbai sayyor”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” va “Saddi Iskandariy” dostonlari tadqiqotning manbalari hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tahlil uslubi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlool mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga oid asarlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda xolislik tamoyiliga asoslanib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. Tadqiqotda qo‘yilgan masalalarni yoritishda A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, I.Haqqulov, N.Jumaxo‘ja, N.Mallayev, B.Valixo‘jayev, M.Nazarov, B.Oqbo‘tayev va boshqa olimlarning ilmiy fikr va xulosalariga suyardik.

Tadqiqotda asosan tarixiy-qiyosiy uslubga asoslandik.

Ishning sinovdan o‘tishi. Dissertatsiya ishi o‘zbek adabiyoti kafedrası ilmiy seminarida muhokamadan o‘tgan. Shuningdek, talabalarning an’anaviy ilmiy-

amaliy anjumanlarida ma'ruza sifatida tagdim etilgan.

Natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni uchta maqolada o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va umumiy hajmi. Dissertatsiya Kirish, sakkiz faslni o'z ichiga olgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 80 sahifani tashkil qiladi.

I BOB: ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING MANBALARI VA MUHIM XUSUSIYATLARI

1. Alisher Navoiy ijodidagi umuminsoniy qadriyatlarning manbalari.

G'ijduvoniylar ta'limotining negizini kambag'al va nochorlikda yashayotgan kishilarni qo'llab-quvvatlash, ularga rahm-shafqat qilish singari insonparvarlik g'oyalari tarannum etadi. U xalqning mehnat mashaqqatini yengillashtirish, xalq xizmatida bo'lishni hammadan ham afzalroq hisoblardi. U o'zining "Vasiyatnoma"sida o'g'liga "Dari shayxiro band va dari yoriro kushoy, dari xilvatro band, dari suhbatro kushoy", "ya'ni odamlar uchun shayxlik eshigini yopginu, yordam eshigini ochgil, xilvat eshigini yorib, suhbat eshigini ochgil" degan o'giti xalq orasida mashhur edi. [V.70,37]

"Inson zoti,-deb yozadi Beruniy "Javohirlar" nomli asarida- barcha hayvonlardan yuqori turadi, yer yuzini obod qilish va uni boshqarib turishi uchun,...insonga sharaf ko'rsatilgan, unga aql-zakovat kuchi hadya etilgan".[V.61,43]

N.I. Konrad Markaziy Osiyoning mutafakkirlari insonning qadr-qimmati "uning yuksak axloqiy fazilatlarini qalbiy olijanoblik, sahovat va do'stlik fazilatlariga erishishi qodirligida deb bildilar"[V.67,482] Biz ham bu fikrga qo'shilamiz. Zero, Sharq Uyg'onish davrining ana shu xususiyatlari o'rta asrning ko'p mutafakkirlari ijodi, shu jumladan, Navoiy ijodi uchun ham xos xususiyat edi.

Sharqda Aristotel va uning g'oyalari juda keng tarqalgan edi. "Sharq mentalitetida, deb yozadi E.E. Bertels,- bu faylasuf juda mashhur edi, musulmon faylasufida uning ta'siri asrlar mobaynida sezilib turadi"[V.57,283]

Markaziy Osiyoda Aristotelning falsafiy va axloqiy qarashlari, fikrlari, adolat haqidagi g'oyalari keng tarqalgan edi. Alisher Navoiy va XV asrda yashagan boshqa mutafakkirlar Aristotelning umuminsoniy qadriyatlar mavzusiga bag'ishlangan g'oyalaridan o'zlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini asoslash uchun keng foydalanganlar.

Beruniy insonning ma'naviy qiyofasi tushunchasini umuminsoniy

qadriyatlar nuqtai nazaridan ta'riflab beradi. Uning "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va boshqa asarlarida irqiy, diniy va hududiy to'siqlarga qaramay, jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatish, tinchlik va totuvlik singari umuminsoniy qadriyatlar masalasi ilmiy asoslab berilgan. Jumladan, uning "Hindiston" nomli asarida yolg'onchilik, o'g'rilik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulkini bosib olish va umuman, dunyo va xalqlarning buzilishiga sabab bo'layotgan yomon xulqlar to'g'ridan to'g'ri qoralanadi. U aytadiki, adolatlilik faqat o'ziga va o'z yaqinlarigagina emas, balki hammaga yaxshilik tilashdan iboratdir. Beruniy ta'biri bilan aytganda, yaxshilik qilish, umuman hammaga va xususan o'z qarindoshlariga, zaiflik chog'ida yaxshi istak bilan iloji bo'lganda esa, ish bilan yaxshilik tilashdan iboratdir.[V.60,26]

Farobiy va Beruniylar ta'limoti, nafaqat o'z zamonasi qadriyatlarining ta'limoti uchun, balki XV asr umuminsoniy qadriyatlar ta'limotiga ham asos soldi. Navoiyning ilg'or ijtimoiy qarashlari Sharq mutafakkirlari, jumladan, Farobiy ta'limoti ta'sirida shakllandi. Navoiy ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashida Aristotel va Farobiy singari faylasuflar ijodi bilan tanish bo'lganligini o'zining "Munshaot" asarida yozadi: "...Fisog'ure hakim zamonidinkim, advor ilmining voizidur. Arastu zamonigachakim, muallimi avval debturlar va Abu Nasr Farobiy chog'idinkim, muallimi soniy debturlar" [IV.34,154]

Demak, mutafakkir o'zining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlarida adolatli tuzum, atrof-muhitni muhofaza qilish, urush va tinchlik muammosiga, islom va tasavvuf ta'limotiga munosabatida zamonasining ehtiyoji va talablarini ifodalaydi va bu fikrlarida o'zidan avval o'tgan ilg'or mutafakkirlarning orzu-umidlari va hayollarini mujassamlashtirdi.

Navoiy ijtimoiy masalalarni insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan hal qilishga intildi. Uning o'zidan oldingi mutafakkirlarning ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarini ijodiy rivojlantirishi nafaqat XV asr davri uchun, balki, hozirgi zamon davri uchun ham madaniy va umuminsoniy qadriyatlarimizni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farobiy, Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, Jomiy va

boshqa mutafakkirlarning diniy, ijtimoiy-falsafiy ta'limoti Navoiy dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar namoyoni va rivoji uchun ilmiy-nazariy asos bo'ldi.

Navoiy ijodidagi umuminsoniy qadriyatlarning yana bir muhim manbai bu diniy va so'fiy adabiyotlardir. Navoiyning so'fiy adabiyotga munosabati uning Farididdin Attor, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdulla Ansoriy, Sayyid Hasan Ardasher va boshqalar bilan yaqinligini o'rganish misolida ma'lum darajada tadqiq etilmoqda. Ammo Navoiyning diniy adabiyotga munosabati, diniy adabiyotlar, xususan "Qur'on" va hadislar shoir ijodining doimiy va muhim manbalari bo'lgani, o'z davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy masalalarini ulug' shoir ko'p vaqt shu asarlarga suyanib hal etganligi shu paytgacha deyarli o'rganilmadi. Navoiy "Nazmul-javohir" asaridagi ruboiylaridan birida "Qur'on", uni o'qishning foydasi haqida quyidagi hayajonli satrlarni bitgan edi:

"Qur'on"ki erur mujdai joni o'qumoq,

Yo'q, yo'qki, hayoti jovidoniy o'qumoq.

Bil ko'ngulga istasang shifoni o'qumoq,

Kim keldi ko'ngul shifosi oni o'qumoq [V.35,76].

Bizningcha, bu o'rinda Ibn Sinoning "Shifo" asariga ishora ham yo'q emas. Ya'ni Navoiy fikricha, inson haqiqiy shifoni "Qur'on"dangina topishi mumkin.

Navoiyning "Xamsa" dostonlaridagi insoniy ulug'lash bilan bog'liq ko'p fikrlari, avvalo, "Qur'on"dan olingan. Chunki "Qur'on"da yozilishicha, Xudo insonning martabasini shunday ulug' qilib yaratganki, hamma farishtalar unga sajda qilgan. Faqat shaytongina bundan bo'yin tovlagan. "Xamsa" dostonlarining kirish qismlarida Navoiy o'zi ham o'z gaplarining "Qur'on" so'zlari bilan bog'liq ekaniga ko'p ishoralar qilgan, "Qur'on"dan iqtiboslar keltirgan. F.M.Dostoyevskiy "Injil" haqida: "Bibliya prinadlejit vsem, ateistam i veruyushim ravno. Eto kniga chelovechestva",- degan edi [IV.41,11]. Navoiy ham "Qur'on"ga insoniyatning ulug' kitoblaridan biri sifatida qaragan. Navoiy o'z g'azallarining birida hazil yo'li bilan: "Qo'lum olib kelar, og'zim ichar, menda ne gunah",-deb yozar ekan, bunda ham u "Qur'on"dan, hamma diniy

kitoblarda bo‘lganidek, Xudodan amrsiz tikon ham kirmaydi, insonning hamma yaxshi va yomon harakatlari ollohning irodasi bilan yuz beradi,- degan fikr o‘tkazilgan. Bu g‘oya “Hayratul-abror”da: “Ne qadame amrsiz olib, ne dam”,- deb ifodalangan. Har qanday bo‘lganda ham Navoiyning “Qur’on”ga, Islom diniga sadoqati tarixiy jihatdan asoslidir [IV.31,22].

Masalan, Navoiy “Hayratul-abror” dostonida axloq masalalari yuzasidan atroflicha fikr yuritar ekan, bu masalalar talqinida “Qur’on”ga faol murojaat qiladi. U, masalan, inson hayotida qanoat qilish katta fazilat ekanini tushuntirmoqchi bo‘lar ekan, “Hadis” dan “Azza man qana” — “Kim qanoatli bo‘lsa izzatli bo‘ladi” iborasi keltirilgan [IV.31,173]. Bunday misollar juda ko‘p. Shoir “Nasoyim ul-muhabbat” asarini yaratar ekan, ko‘p so‘fiylarning mehnat ahlidan kelib chiqqani, halol yashaganini ta’kidlash uchun “Hadis”dagi — “Kosib ollohning do‘sti” degan iborani keltiradi [IV.41,12]. Shu misollarning o‘zi ham biz “Qur’on” va “Hadis”larga nisbatan qarashlarimizni o‘zgartirib, unda kishilar tarbiyasi uchun yaxshi fikrlar borligini tan olishimiz, Navoiy kabi klassiklarimiz asarlarining diniy qarashlar bilan bog‘liq qismlari talqinida subyektivlikka, soxtalashtirishga endi yo‘l qo‘ymasligimizni taqozo etadi. O‘tmishda Sharq musulmon mamlakatlarida xalqni, davlatni, jamiyatni qonuniy boshqarib turishi kerak bo‘lgan musulmon huquqshunosligi-fiqh ham boshidan oxirigacha “Qur’on” va hadislariga asoslangan edi. Navoiy fiqhni o‘rganish sharaflari ish ekanini ta’kidlab “Nazmul-javohir”da quyidagi ruboiyni yozgan va faqihlarni ummatlarning sarvari deb ulug‘lagan:

Qolg‘on kishi kasbi ilmdin zahmat aro,
Fiqh o‘rgansun, sa’y ila ul mehnat aro.
Ilm ichra sharaf fiqhda bil nisbat aro,
Kim, sarvar erur faqih, bu ummat aro [IV.35,96].

Faqih bo‘lish, fiqhni o‘rganish esa oson ish emas edi. Buning uchun arab tilini yaxshi bilish, diniy kitoblarni puxta, ipidan ignasigacha o‘zlashtirish, boshqa faqihlarning asarlarini, “Qur’on” sharhlarini bilish talab etilar edi. Ma’lumki, fiqhni Navoiy Samarqandda buyuk arabshunos va fiqhshunos

Fazlulloh Abulaysdan o'rgangan edi.

Navoiy ijodiyotining ikkinchi bir muhim manbai - xalq og'zaki ijodidir. H. Zarifov, N.Mallayev, M. Saidov, M. Hakimov va boshqa olimlarning bu sohadagi tadqiqotlari masalaning ko'pgina tomonlarini obyektiv tarzda yoritib bergan. Lekin. Navoiy asarlari shunday xazinaki, bu masala yuzasidan ham yangi tadqiqotlar yaratish, Navoiyning faqat o'zbek xalq og'zaki ijodiga emas, boshqa xalqlar folkloriga munosabatini ham chuqurroq o'rganish zarurga o'xshaydi. Masalan, Xorazmlik alloma Mahmud Zamahshariy "Al-Mustaqso fi amsol il-arab", "Navobig'ul-kalim", "Maqomatuz Zamahshariy", "Atvoq uz-zahab" kabi asarlarida arab xalq maqollari va hikmatli so'zlarini yig'ishga katta ahamiyat bergan. Ma'lumki, Navoiy Zamahshariy asarlarini Sakkokiy, Ibn Hojib, Taftazoniy asarlarini sevib va sinchiklab o'qigan. Zamahshariy asarlarining xususan "Mahbub ul-qulub"ning yaratilishiga muayyan ta'siri bo'lishi kerak. Ammo bu haqda hali jiddiy o'ylab ko'rilganicha yo'q.

Navoiy ijodini o'rganishning eng muhim manbalaridan yana biri, albatta, shoir ijod qilgan davr, u yashagan real tarixiy sharoit, u nafas olgan madaniy muhitdir. Navoiy ijodini busiz tasavvur etish qiyin. Uning asarlari shu muhitning mevasi. Bu sohada katta ishlar qilingan. Lekin bu masalani yoritishda ham yaqin o'tmishda ma'lum biryoqlamaliklarga yo'l qo'yilganini tan olish, endilikda buni tuzatish kerak. Masalan, Navoiy yashagan adabiy muhit talqinida Husayn Boyqaroning nomi ko'p vaqt salbiy baholangan, kamsitilgan. Ma'lumki, Husayn Boyqaro Navoiy darajasida bo'lmasa ham, umuman iste'dodli shoir bo'lgan. Navoiy "Majolisun-nafois"da Husayn Boyqaroning original g'azallar yozganini ta'kidlaydi va buni misollar bilan isbot qiladi. Shu bilan birga Navoiy "Xazoyin ul-maoniyy" devonini tuzar ekan, Husayn Boyqaro bu katta ishda mas'ul muharrir vazifasini bajargan. "Xazoyin ul- maoniyy" debochasida Navoiy buni aytib o'tgan.

Biz bu o'rinda Navoiy ijodining bir qancha manbalari haqida mulohaza yuritdik. Navoiy ijodining bundan boshqa manbalari ham yo'q emas. Masalan, Navoiy qadim Yunon madaniyatini, arab adabiyotini, Hindistonni juda yaxshi

bilgan. “Farhod va Shirin” dostonidagi Yunon mamlakatiga oid ta’rif va tavsiflarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda shunday satrlarga duch kelamiz:

Ki Yunon mulki ul farxunda kishvar,
Ki hikmat birla topti zebu zavar.
Hakimikim, topib ashkoli aflok,
Bu kishvar tufrog‘idin bir ovuch xok.
Toshi hikmat elining durri toji,
Giyohi barcha illatlar iloji. [IV.24,133].

Bu o‘rinda Navoiy Yunon mamlakatini qadimiy madaniyatning beshigi, barcha fanlar rivojlangan, tabiati ham boy bir baxtiyor o‘lka sifatida madh etmoqda. Biroq, shoir bu o‘rinda umumiy gaplar va mavhum ta’riflar bilan cheklanib qolmoqchi emas. Qadim Yunon shuhrati haqida gap borar ekan, ikkinchi baytda osmonning tuzilish sirlarini birinchi marta hal qilib bergan bir Yunon olimini eslatib, o‘shanday buyuk inson ham shu mamlakatning tabarruk bir siqim tufrog‘idan dunyoga kelganini aytmoqda. Bu olim kim? Bu eramizning 90-yillarida tug‘ilib, 160-yillarida vafot etgan, mashhur “Almagest” (“Almajasti”) asarining muallifi Klavdiy Ptolemey bo‘lib, u Sharqda Batlimus nomi bilan shuhrat topgan, asarlari arab tiliga tarjima ham qilingan. Navoiy uning ilmiy faoliyatidan yaxshi xabardor edi. Navoiy Batlimus haqida boshqa dostonlarida ham so‘zlagan.

Biz Navoiy ijodining manbalarini qancha yaxshi bilsak, ularni o‘rganish, tadqiq etish usullarimizni qancha takomillashtirsak, ulug‘ shoir asarlariga bergan bahomiz shuncha to‘g‘ri va obyektiv bo‘ladi.

2.Navoiyning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati.

Qadriyat tushunchasi inson uchun “qadrli” bo‘lgan narsalar, voqealar, hodisalar, holatlar, jarayonlar, sifatlar va boshqalarni ijtimoiy ahvolni ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy-eksiologik tushunchadir. K.Nazarovning ta’rificha , qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir bo‘ladigan, subyekt uchun muayyan ta’sirni namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko‘rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma’naviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalagan umumiy falsafiy–eksiologik kategoriyadir. [V.65,14]

... qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmuasi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Ammo qadriyatlarning ahamiyati doimo bir xil bo‘lavermaydi, ijobiy va salbiy qirralar, turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ikkinchidan qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, taraqqiyot zaruriyatiga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog‘onasiga chiqib oladi. Masalan, yurtni yov bosganda – ozodlik, bosqinchilik hukmronligi davrida – istiqloq, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, bemorlikda – sihat salomatlik asosiy qadriyatga aylandi.

Moddiy va ma’naviy, umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlardan tashqari, millat va elat yashashi va ravnaqini aks ettiruvchi milliy qadriyatlar ham mavjuddir. Milliy qadriyatlar ayrim xalq, millat va elatlarning o‘z tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratadigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarning mahsuli hamdir. Moddiy va ma’naviy, ijtimoiy – siyosiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning omili bo‘lgan insonning o‘zi dunyoda eng oliy qadriyatdir. Insonning qadriyatdor ekanligi uning dastavval o‘z- o‘zida va jamiyatning insonga bo‘lgan axloqiy munosabatini aks ettiradi. Qadriyatlar insonlar o‘rtasida o‘zaro munosabatda va shaxsning o‘z xulqini tartibga solishda

katta ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, millatlarning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liq. Biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunini boyitadi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatidan chuqur va keng bo'lib, uni o'z ichiga oladi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi. Jamiyatning yashashi uchun umuminsoniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular kishilarga hayotning mazmunini chuqurroq tushunish, jamiyat qonun-qoidalaridan ijobiy foydalanish, o'zlarining xatti-xarakatlarini ana shu ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi; inson bilan tabiat, inson bilan inson munosabatlarini aks ettiradi, jamiyat rivojlanishi jarayonida takomillashib boradi; o'z tabiatiga ko'ra biror bir kerakli axborot beradi, kishining ma'naviy olamini boyitadi, yashashning haqiqiy mezonlarini belgilaydi, odamlar intiladigan ideal, azaliy orzu, ezgu-maqsad sifatida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Muayyan kishilar, guruhlar tomonidan noto'g'ri tushunilishi, talqin qilinishi, qabul qilinmasligi, rad qilinishi, tanqid ostiga olinishi, ta'qiqlab qo'yilishi ham mumkin. Ammo bu ularning qadri yoki ahamiyatini butunlay yo'qotib yubora olmaydi. Ular zamin va zamon "silsilalari" orasidan o'tishga yo'l ochadilar va asrlardan o'tib insoniyat uchun muayyan qadrlarni namoyon qilib boraveradilar; kishilarning ma'naviyati, yashash usuli, turmush tarzi, xatti-harakatlari, ijtimoiy faoliyatning asosiy mezonlari darajasiga ko'tarilganlarida o'z ahamiyatlarini to'la-to'kis namoyon qilishlari uchun imkoniyat beradi; ularning qadri va jamiyat uchun ahamiyatini moddiylik qonuniyatlari orqali izohlash, bahosini esa moddiy foydasi bilan ifodalash qiyin. Bu baho vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, yangicha izohlanishi va ifodalanishi mumkin.

Navoiyning ijodiy va ma'naviy faoliyatida milliy va umuminsoniy

qadriyatlar andozasida bayon etilgan e'tiqodini asoslab berish bugungi kun talab va ehtiyoji hisoblanadi. Zero, Navoiy faoliyatining asosiy muammosi –Vatan, millat, din, ilm –fan, ma'rifatni rivojlantirish edi. Bularning barchasi mutafakkir ijodi va faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan bayon etilgan asarlarida o'z ifodasini topgan.

U milliy qadriyatlarga e'tiqod masalasini har tomonlama keng va chuqur doirada tadqiq qilib, bu muammoni o'zbek tilini joriy qilish g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda bayon etadi. Ona tilining imkoniyat va qudratiga e'tiborsizlik bilan qarovchilarga uni dag'al til deb pastga uruvchilarga keskin qarshi chiqdi. Ona tili uchun kurash har bir xalqning eng birinchi va muqaddas vazifasi ekanligini qayd qiladi. Ona tili tagdiriga alohida ahamiyat beradi.

Zero, Navoiy o'z ruboiylaridan birida, Shohu toju xil'ati kim men tomosho qilgam, o'zbagim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas, deb avvalo haqli qaysi millat vakili ekanligini ma'lum qilganligi bejiz emas edi albatta. Navoiyning asosiy xizmatlaridan yana biri shundaki, u millatni birlashtiradigan muhim omillaridan biri milliy qadriyatlar deb tushungan. Milliy qadriyatlarni esa mazkur jamiyat a'zolari o'zlarini mustaqil huquqli yagona millat vakillari sifatida his qilishdir, deb bilgan.

Uning “Lison ut- tayr” asarida:

Turk nazmida chu tortib men alam,

Ayladim ul mamlakatni yaqqalam.[V.36,25]

deb aytishi milliylikka qaratilgan va asosiy niyatga erishishning to'g'ri yo'li shu edi. Demak, Navoiy barcha turkiyzabon davlatlarni birlashtirishi, milliy g'ururni tiklash va qadriyatlardan faxrlanishning asosida o'zbek tilining kelajakdagi porloq yo'lini ko'ra bilgan.

Navoiy turk xalqlarining birligi, tili va madaniyati uchun kurashish bilan bir qatorda, ularning diniy e'tiqodi uchun ham kurashdi... hadislarning birida, “Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaat keltiradiganidir”, deb aytilgan. Navoiy bu hadisni o'zining “Arbain” asarida quyidagicha o'giradi:

Xalq aro yaxshiroq deding kimdur,

Eshitib, shubha ayla raf' andin.

Yaxshiroq bil ani ulus aro,

Ko'proq o'lg'ay ulusqa naf' andin.[IV.38,12]

Mutafakkir fikricha, xalq g'amu tashvishi va farovonligi yo'lida xizmat qilish har bir kishining insoniylik burchidir. Navoiy umri davomida ana shu hadis mazmuniga amal qilganidek, butun umrini, ijodiy faoliyatini va mehnatini beminnat holda xalqqa, odamlarga ularning manfaati uchun sarfladi.

Mutafakkirning dunyoqarashicha, aql din ila, din amal ila, amal taqvo ila kamol topar. Din insonlarning dilidan sahovat, himmat, mehr-shafqat va muruvvat eshiklarini ochib, saodat va salomat bo'stoniga olib boradi.

Navoiy saxovat, himmat, mehr-shafqat va muruvvat-insonning eng yuksak fazilatlaridan biri deb hisoblaydi va uning mohiyatini quyidagicha tasvirlaydi.

Demak, baxillik saxiylikning teskari tomoni bo'lib, undan insonga va butun jamiyatga katta zarar yetadi. Boylik karam qilmoq uchun ishlatilmog'i lozim. U o'z qarashlarini amalda ham qo'llaydi. Masalan, Navoiy karam va saxovatning benihoyaligiga qaramay, u hech qachon, hech kimga zarracha ham minnat qilmasdi deb ta'riflaydi. "Makorim ul axloq" asarida Xondamir yana deydiki, bu hashamatli Amir son-sanoqsiz ko'ngil ochar bog'lar, shodlik orttiruvchi manzillarni sayidlarga, olim va fozillarga in'om qilganlar va ayni paytda shunday voqealar ham ko'p bo'lganki, "Husayn Bayqaroning saroy kishilari ba'zi bir zarur xarajatlar uchun xalq ustiga og'ir soliqlar yuklamoqchi bo'lganlarida, xalqning qiynalmasligi uchun, Navoiy mablag'larini o'z tomonidan to'lab yuboradi". [V.66,107]

Ko'pgina xorijiy tadqiqotchilar Navoiyning buyuk shoir ekanligini qayd etib, uning payg'ambarona hayot kechirgani, xayru sahovat va kambag'allarga mehribonlik va g'amxo'rlikda nom qozongan. Davlat arbobi darajasiga yetganini ta'kidlaydilar.

Amerika olimlari Tomas Lente va Gleni Louvri "XV asrning oxirida temuriylar saltanatining madaniy hayotiga juda muhim ta'sirni o'tkazgan Mir Alisher Navoiy ...muhtojlarga xayru ehson qiluvchilarning mashhuri, shoir va

olim edi” deb yozadilar [IV.67,71] Shu tadqiqotda aytilishicha, Navoiy o‘z mulkidagi juda katta mablag‘ni rasmiy davlat idoralariga, podsho xazinasiga va shaxzodalarga bo‘lib bergan. U butun hayotini, bor-yo‘g‘ini xalqqa sarfladi. Uning yashashdan maqsadi, xalqning iqtisodiy va ma’naviy hayotini yaxshilash, mamlakatni obod qilish, turkiyzabon davlatlarni ilm-fan sohasida birlashtirishi, ular o‘rtasida tinchlik va totuvlikni barqarorlashtirish edi.

Milliy qadriyatlar ayrim xalqlar, millatlar va elatlarning taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarining yig‘indisidan iboratdir. Umumiy qadriyatlar bashariyatning mulkidir.

Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o‘zgarmas narsa emas. Har bir tarixiy davrning qadriyati mazkur zamonda o‘tmishning umumiy qadriyatlarini o‘z ichiga oladi va uni ijod etadi. Muayyan qadriyatlarni o‘zlashtirish zaminida bugungi kunda yaratilgan ma’naviy qadriyatlar ertaga o‘zlari ham keyingi avlodlarga qoladigan umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismiga aylanadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Navoiy umuminsoniy qadriyatlar muammosini talqin qilishda va amalda qo‘llashda ilg‘or faoliyat ko‘rsatgan. Zero, o‘rta asrchilik sharoitida iymon, sahovat, shafqat va muruvvat kabi qadriyatlar keng va teran fikr yuritish, amalda ham shaxsiy namunalar ko‘rsatish uchun kishidan katta jasorat va bilim talab qilinar edi.

Vatan va xalqimiz boyligi uchun kerakli bo‘lgan har xil ilm va tillarni o‘qimoq va o‘rganmoq;

har ishni ilm, ittifoq va to‘g‘rilik ila qilmoq;

barcha xalqlarni o‘z qarindoshlari kabi do‘st tutmoq;

ota-onani va ulug‘ kishilarni izzat va hurmat qilmoq;

yoshlarga marhamat, faqirlarga shafqat, muhtojlarga ehson qilmoq;

o‘z foydasidan xalq va millat foydasini ortiq ko‘rmoq kabi g‘oyalar ilgari surilgan.

2. Navoiyning ijodiy-falsafiy qarashlari kishilarda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g‘ururning o‘sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. U... insonlar hayotda bir-birlarini yaqin ijobiy munosabatda, mehribon va oqibatli bo'lib yashashi, ayniqsa, yoshlar umrini behuda o'tkazmay, uni muruvvat, olijanoblik, barcha insonlarga yaxshilik qilish yo'liga sarflashi kerak, mazmunidagi g'oyani ilgari suradi.

4. Navoiy xalqimiz va millatimizning kuch-qudrati va imkoniyatlariga, g'oyaviy-siyosiy jihatdan bir butun yaxlitligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan mahalliychilik, guruhbozlik, qabila-urug'chilik munosabatlariga qarshi murosasiz kurash olib borishga keng jamoatchilikni da'vat etadi.

5. Katta qalb, o'tkir aql va boy tajriba egasi bo'lgan Navoiyga sharqona andozalar ham ba'zan torlik qiladi.

I bob bo'yicha xulosa.

Navoiy ijtimoiy masalalarni insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan hal qilishga intildi. Uning o'zidan oldingi mutafakkirlarning ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarini ijodiy rivojlantirishi nafaqat XV asr davri uchun, balki, hozirgi zamon davri uchun ham madaniy va umuminsoniy qadriyatlarimizni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aristotel, Farobiy, Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va boshqa mutafakkirlarning diniy, ijtimoiy-falsafiy ta'limoti Navoiy dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar namoyoni va rivoji uchun ilmiy-nazariy asos bo'ldi. Navoiy ijodidagi umuminsoniy qadriyatlarning yana bir muhim manbai bu diniy va so'fiy adabiyotlardir. Navoiyning so'fiy adabiyotga munosabati uning Farididdin Attor, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdulla Ansoriy, Sayyid Hasan Ardasher va boshqalar bilan yaqinligini o'rganish misolida ma'lum darajada tadqiq etilmoqda. Navoiyning "Xamsa" dostonlaridagi insoniy ulug'lash bilan bog'liq ko'p fikrlari, avvalo, "Qur'on"dan olingan.

Navoiyning ijodiy va ma'naviy faoliyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar andozasida bayon etilgan e'tiqodini asoslab berish bugungi kun talab va ehtiyoji hisoblanadi. Zero, Navoiy faoliyatining asosiy muammosi –Vatan, millat, din, ilm –fan, ma'rifatni rivojlantirish edi. Bularning barchasi mutafakkir ijodi va faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan bayon etilgan asarlarida o'z ifodasini topgan.

Navoiyning fikricha, qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmuasi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

II BOB: NAVOIY TALQINIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR – INSONIYLIK MEZONI SIFATIDA

1.Iymon – insoniylik nishonasi

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishona anga iymon erur. [IV.31,100]

Bobning ilk baytidayoq iymon insonlikning nishonasi - belgisi tarzida qo'yiladi.

Iymon - islomiy tushunchalarning asosiylaridan biri. Islomda Olloh taolo tarafidan insonga bajarish majburiy qilib qo'yilgan besh amr, ya'ni buyruq mavjud. Ular farz deyiladi.

Birinchisi - iymon.

Ikkinchisi - har kuni besh mahal namoz o'qish.

Uchinchisi - yil davomida ishlatilmay, ortiqcha bo'lib turgan mol-mulk uchun zakot berish.

To'rtinchisi - yiliga bir oy ro'za tutish.

Beshinchisi - imkon topilsa, umrda bir bor haj ibodatini ado etish.

“Xamsa”ning birinchi dostoni - “Hayrat ul-abror”da, iymonga bag'ishlangan maxsus bob bor.

Tarkibiga ko'ra, doston 20 maqolatdan tashkil topgan. Mohiyatan birinchi maqolat boshlangunigacha bo'lgan hamdu na'tu madhu hayratlardan iborat 21 bob ham, har bir maqolatdan keyingi hikoyaviy boblar ham, hatto, asarning yakunlovchi ikki bobi ham ana shu maqolatlarda ko'tarilgan masalalarni u yo bu jihatdan to'ldirishga xizmat qiladi, deyish mumkin.

Yigirma maqolatda yigirma muayyan masala o'rta qo'yiladi.

Maqolatlarning birinchisi - iymon haqida.

Demak, iymon inson uchun shunchalar muhim fazilat ekan.

Shoir bobning nasriy sarlavhasidayoq iymonni yuzaki tushunish ham, chuqur anglab yetish ham borligini bildirib o'tadi:

“Iymon sharhidakim, “Al-iymonu an tuminu billahi va maloyikatihi va kutubihi va rusulihi va bil-yavm il-oxiri va bil-qadri xayrihi va sharrihi”

demakdin maqsad bu kalimot emas va agar ahli zohir buni iymon desa, ahli ma'ni - demas va uluhiyat daryosig'a shinolig' ajzin zohir qilmoq, va maloyika havosida bir necha qanot urmoq va kutub avroqida bir necha harf surmak va rusul jodasida necha qadam yugurmak va qiyomat qoyim bo'lurida qiyom ko'rguzmak va qadar bobida aloqadri hol tarannum tuzmak ". [IV.31,100]

Demak, iymon faqat Ollohg'a, uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, tagdirdagi yaxshilik va yomonlik ham Olloh tomonidan ekaniga, qiyomat bo'lishi muqarrarligiga ishonishdangina iborat emas ekan. Ma'ni ahli, ya'ni tasavvuf vakillari nazarida iymon bundan ham daqiqroq ma'nolarga ega va u kishiga bag'oyat katta mas'uliyatlar yuklaydi.

Olloh insonga nutq berib, uni boshqa barcha jonzotlardan ustun qildi. lekin nutqi borni inson deyaversak, unda yaxshi bilan yomonning farqini qanday bilamiz? Yoki olim bilan johilni ne taxlit ajratamiz?

Navoiy mulohazalaridan kishilarni iymonga qarabgina yaxshi va yomonga ajratish mumkin, degan fikr kelib chiqadi.

Xo'sh, iymonning o'zi nima? Axir, shoir faqat boyagi kalimalarni qaytarishning o'zigina iymon emas, degan edi-ku! Ko'zbo'yamachilik qilmasdan o'zida sabr, shukr va hayoni tarbiyalagan kishinigina inson sanash mumkin:

Bas, ani inson atagil beriyo,

Kim ishidur sabr ila shukru hayo. [IV.31,101]

Chunki payg'ambarimiz - Muhammad alayhi-s-salom ana shu uch fazilatni iymonning muhim sharti qilib qo'yganlar:

Bo'yla buyurdi nabiyi Hoshimiy, —

Kim bu uch iymonning erur lozimi. [IV.31,101]

Xo'sh, iymonli bo'lish uchun inson ana shu uch fazilatga erishishi lozim ekan, baribir, iymonning o'zi nima unda?

Navoiy iymonning olti sharti borligini aytib, keyin bir-bir ularning tafsilini keltiradi.

Birinchi shart - Haq, ya'ni Ollohning mavjudligini tan olish:

Oltidin avvalg'iki, maqsud erur,

Bilmak erur haqniki, mavjud erur. [IV.31,102]

Butun borlikni - jumla mavjudotni yaratgan ham o'zi, nobud qilgan ham. Barchani nobud aylagan taqdirda ham, uning o'zi mavjudligicha qolaveradi:

Iymonning ikkinchi sharti - maloyikalarga ishonish. Ular bus- butun Olloh amrida yuradi, Xaq amrisiz na nafas oladi va na qadam tashlaydi. Shuning uchun bu dunyoda ularchalik pok mahluqot topilmaydi. Chunki ularda nafs yo'q:

Oltidin ikkinchi maloyikni bil,

Borchag'a tasdiqi vujud aylagil. [IV.31,102]

Uchinchi shart- Ollohning kitoblariga ishonish, ularning bari Tangrining so'zi ekaniga mutlaqo shubha qilmaslik:

Angla uchunchi kutubi osmon,

Tengri so'zi bil borisi begumon. [IV.31,102]

Iymonning to'rtinchi sharti - Ollohning payg'ambarlariga ishonish. Ularning har biri Hak amri va nahy asosida ish ko'rgan. Kimki hujjat so'rasa, ularning mo'jizalar ko'rsatganiga e'tibor bersin. Garchi hammasi ham payg'ambar deyilsa-da, ular ham uch xil bo'ladi: nabiylar, rasullar va umm ul-azm.

Iymonning beshinchi sharti shuki, insonning qilgan har yaxshi va yomon ishi hisobga olib boriladi:

Keldi beshinchi anga yavm ul-hisob,

Dema hisob, aytki yavm ul-azob. [IV.31,105]

Iymonning oltinchi, ya'ni oxirgi sharti - qiyomat bo'lishiga, hammaning qayta tirilishiga, barchaning qilgan ishlariga qarab jannat yo do'zaxga doxil bo'lishi aniq ekaniga ishonishdan iborat:

Mo'taqid o'lmoqki, qiyomat bo'lur,

Qilganidin elga nadomat bo'lur. [IV.31,105]

Bob mashhur shayx - Boyazid Bistomiyning bir muridi savoliga javobi haqida.

Bir kuni Boyazid Bistomiy g'amgin bo'lib o'tirgan edi. Muridlaridan biri qadami falak avjiyu arsh fazosiga yetgan bu piri komilning qayg'uga botishi sababini bilolmay, savol ayladi.

Pir kutilmagan javob qaytardi. U ko'z yosh to'kib, bir oh chekdi-da, shunday dedi: "Bu jahon ichra el ko'p-u, lekin orasida haqiqiy odam ko'rinmaydi. Har kimga o'z ishi ma'quldek, biroq ular ichida chinakam inson yo'q. Agar chin inson bo'lsa ham, o'tib ketganlar orasidagina bo'lishi mumkinga o'xshaydi": [IV.31,33]

Kim bu jahon ichraki, eldur g'ulu,
El to'la, ammo kishidindur xulu.
Har kishiga xush ko'rinur o'z ishi,
Bir kishi yo'qkim, desa bo'lgay kishi. [IV.31,108]

"Iye, dedi murid ham qo'ymay, bu dunyo xalqi orasida chinakam odam yo'q, deyapsan, axir, o'zing ham shu dunyo odamlari sirasiga kirasan-ku!"

"Ey gumroh, dedi pir muridga, men tugul, mendan yuz ming daraja yuqori turadigan odam bo'lsa ham, agar u chin iymon bilan ketmasa, o'shani ham inson deb bo'lmaydi.

"Yoshu qari ana shuning g'amini chekadi. Hammamiz shuni o'ylab motam tutamiz. Kimki buning g'amini yemasa, axir, joni bilan vidolashgan mahali unga qanday qilib iymon hamroh bo'la oladi?!" - dedi piri komil:

Navoiy bob so'ngida soqiyga murojaat qilib, iymon mayidan keltirishni, uni og'ziga quyishni so'raydi:

Soqiy, o'lubmen, mayi iymon ketur,
Jismima iymon mayidin jon ketur.
Quyma bu kun jonima davron mayi,
Jonim ol, og'zimga quy iymon mayi. [IV.31,110]

Iymon hazrat Alisher Navoiy uchun ana shunday hayot-mamot masalasi, u dunyoga ketar mahal kishiga yo'ldosh bo'la oladigan yagona sherik hisoblanar edi.

Shuni ham qo'shimcha qilish kerakki, iymon - hali musulmonchilikning

dastlabki sharti, xolos. Iymon keltirgan kishi mo‘min bo‘ladi. Ammo mo‘minlarning hammasi ham hali musulmon emas. Asl musulmon bo‘lish uchun islomning barcha shartlari - hamma farzu sunnatlariga bekamu ko‘st amal qilish zarur.

Shuning uchun ham diniy ilmi bor kishilar millatdoshlarimizga: “Ey mo‘min-musulmonlar!” - deya murojaat qiladi. Bu bekorga emas.

Ko‘rinib turibdiki, mo‘min bilan musulmonning e‘tiqod darajasida farq bor.

Shoirning insoniy barkamollik haqidagi qarashlari boshdan - oxir islomiy edi. U insoniy ma‘naviyatni islom aqidalaridan ayri tasavvur qilmas edi. Iymonki shoir nazdida odamiylikning bosh mezoni darajasida talqinu targ‘ib etilgan ekan, milliy ma‘naviy komillikka intilayotgan bir mahalda biz bundan obdon boxabar bo‘lishimiz kerak. Chunki, ko‘rib o‘tilganidek, bobokalonimiz iymonni faqat zoxiriy, ya‘ni yuzaki ma‘nodagina emas, chuqur falsafiy-tasavvufiy talqinlarda tushuntiradi.

Bo‘lmasa iymon bila ketmak ishi,

Anglaki, oni desa bo‘lmas kishi. [IV.31,109]

Xullas, iymon barchani har bir ishda oxiratni o‘ylashga undaydi. Shu oliy tuyg‘uning o‘zi - insoniyat erishgan eng buyuk ma‘naviyat.

2. Xalqparvarlik – eng oliy qadriyat.

Navoiy ijodining tub mohiyati dastavval uning benihoya va chinakam insonparvarligidadir. U har doim insonni ulugʻladi, uni yuksak fazilatlarini qadrladi, sof insoniylikni yuksak darajada zoʻr berib tashviq etdi. Asl insoniylik xalqparvarlikda, xalqparvarlik esa eng oliy qadriyat ekanini qayta-qayta taʼkidlaydi. Haqiqiy odamiyat xalq uchun yashash, xalq baxti saodati uchun kurashish ekani Navoiy dostonlaridagi sevikli qahramonlar – Farhod, Iskandar, Navfal, Mehinbonu, Shirin obrazlarida yaqqol namoyon boʻladi. Ulardan hech biri xalq manfaatidan boshqa narsani koʻzlamaydi, sidqidildan xalqqa xizmat qiladi. Insonning baxti uning vatani bilan chambarchas bogʻlangan. Navoiy vatanparvarlikni chin insoniy fazilat deb bildi. Shu boisdan ham vatan himoyasi, vatan yodi Navoiy qahramonlari faoliyatida alohida oʻrin tutadi.

Navoiyning fikricha, hukmron shaxslarning asosiy xususiyati ularning xalqparvarligi va adolatparvarligida deb taʼkidlaydi. Shuning uchun ham Navoiy asarlarining ijobiy qahramonlari boʻlmish hukmronlar xalqparvarlikni, adolatparvarlikni peshva qilgan shaxslardir. Zolim va berahm shohlarni gʻazab bilan tanqid ostiga oladi. “Muhtasham saroylarining parda va rishtalarini el jonidan tuzgan, bezaklarini ulugʻ qoni bilan boʻyagan zulmkor podshohlarga qarata:

Zulming erur kunduzi, fisqing kecha

Zulming ila fisqing kecha boʻlgʻay necha, - [IV.31, 108]

deb xitob qiladi”. Xalqqa gʻamxoʻrlik qilishni unutib, maishatga berilib ketgan shohlarni qanday fojiali tagdir kutayotganini Bahromshohning butun lashkari bilan oʻzi toʻkkan qonlar girdobida yer qaʼriga botib yoʻq boʻlib ketishi misolida tasvirlaydi.

Navoiy ijodida vatanparvarlik masalasi adolat bilan uzviy ravishda bogʻliqdir. Navoiy ijodidagi xalqparvarlik, vatanparvarlik haqidagi fikrlari “Hayrat ul abror”dagi “Ul kabutar hikoyati”da yaqqol koʻrinadi. Buning mazmuni quyidagicha:

Juda tez uchadigan xat tashuvchi kabutar boʻladi. U kunlarning birida shoh

qafasiga tushib qoladi. Kabutar qafasda juda ko‘p azob-uqubat chekadi. Oxiri u qafasdan qochishga musharraf bo‘ladi va o‘z xalqiga tezlik bilan uchib keladi. U hech qayerda qo‘nmay o‘z uyini qidiradi, lekin topa olmaydi. Zamona zo‘rlari uning yashagan uyini vayron qilgan edilar. Qush bu vayrona atrofida ko‘p marta aylanib, oxiri shu xarobaga qo‘nadi. Qushga shohning oltin qafasidan o‘z vayrona kulbasi afzal ko‘rinadi. Hikoyada o‘sha zamon uchun xarakterli bo‘lgan hayotiy voqea ajoyib mahorat bilan badiiy ifodalangan.

Hikoyatda mavjud feodal jamiyatining eng xarakterli illati fosh qilinadi. Bir tomonda shoh saroyining dabdabasi, ikkinchi tomonda, xarobaga aylangan mamlakat, bir tomonda, shu boylikni yaratuvchi xalqning nochor hayot kechirishi. Bu ikki qarama-qarshi insonlarning bir-birini tamoman istisno qilishi hikoyatdagi kabutar obrazi orqali juda aniq ochib berilgan. Kabutar o‘z vatanini sevgan vatanparvar kishilarning majoziy obrazidir.

Demak, shoir hikoyatda hayotiy voqealar, xalq og‘zaki ijodi materiallaridan foydalangan. Sezgirlik, vatandan ajralmaslikka harakat qilish, erksevarlik kabi g‘oyalarni kuylagan.

Adolatparvarlik, xalqparvarlik el-ulus tashvish g‘amidan ogohlik, mamlakat obodligi haqida qayg‘urish – Navoiy obrazlarining xarakterini belgilovchi asosiy xususiyatlardan edi. “Farhod va Shirin”dagi Farhod obrazini olaylik. Farhod mislsiz xalqparvar va vatanparvar insondir. U doimo yurtning obodligi va xalqning farovonligi uchun kurashadi. O‘zi binokorlik qiladi, tog‘- Tosh kesadi, insonning har qanday dushmanlariga qarshi kurashadi. U Shirinni sevish bilan birga, Shirinning yurti va elini ham sevadi. Armanistonni yovuz Xisravning hujumidan mardonavor himoya qiladi. Farhodni kuch bilan yengolmagan Xusrav uni makr-hiyla bilan asir oladi. Lekin bu Farhodni tashvishga solmaydi, uning irodasini bukolmaydi, xalq va sevgi uchun kurash yo‘lidan chekintirolmaydi. Farhod dadil va mag‘rur inson. Mana Xisrav bilan uning munozarasi:

Dedi: nedur senga olamda pesha?

Dedi: ishq ichra majnunluq hamesha. [IV.24,116]

Dedikim: ishqig‘a ko‘nglung o‘rundur?

Dedi: ko‘nglumda jondek yoshurundur.[IV.24,116]

Farhodning keskin va qat’iy javoblari mutakabbir va xudbin Xisravni ruhan mag‘lub qiladi.

Navoiy mamlakat va xalqning osoyishta yashashi uchun dastlab shoh adolatparvar, xalqparvar bo‘lishi lozim, deydi. Shuning uchun ham u o‘z davridagi zolim hukmronlarni adolatga chaqirishda uzoq o‘tmishda yashab o‘tgan shaxslarning adolatli va xalq uchun qilgan ishlarini ularga o‘rnak qilib ko‘rsatadi. U “Xamsa”ga kirgan qator dostonlarida Anushervon, Hushang, Feruzshoh va Iskandar kabi tarixiy shaxslarning ibratli ishlarini qayta-qayta tilga oladi. Masalan, Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida odil hamda zolim shohga shunday baho beradi:

...Yana bir jahondor Hushang edi,

Ki zebandai toju avrang edi.

... Yana dahr dorosi Zahhok edi,

Ki el qoni to‘kmakta bebok edi.

Boshqa bobda adolatli Anushirvon shunday madh etiladi:

... Anushirvon garchi kofir edi,

Vale adl zotida zohir edi. [IV.23,152]

Yuqorida qayd etilgan “odil va xalqparvar shoh deb nom olgan tarixiy shaxslar, Navoiy talqinida haqiqiy ma’nodagi xalqparvar adolatli shohlar sifatida baholanadi. Shu bilan birga “Farhod va Shirin”dagi Farhod, “Sabbai sayyor” dostonidagi Farrux, shuningdek, “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar shunday xalqparvar va adolatparvar shahzodalardir. Ularni odamiylik, xalqparvarlik, olijanoblik, aqlan va jismoniy yetuklik, kamtarlik va shafqatlilik birlashtirib turadi. Ular ilm-hunarni mukammal o‘zlashtirgan jasur va andishali shohlardir.

“Farhod va Shirin”da hoqon, “Sabbai sayyor” da Jasrat o‘z ixtiyorlari bilan Farhod va Farruxga taxtga o‘tirishni, mamlakatni adolat bilan boshqarishni taklif etadilar. Bu taklifni har ikki shahzoda ham rad etadi, o‘zlarini bu mas’uliyatli

o‘ringa noloyiq deb hisoblaydilar.

“Saddi Iskandariy” dostonida ham shu holni ko‘ramiz: vafot etgan shoh o‘rniga o‘tirishdan valiahd Iskandar voz kechadi, kamtarlik bilan shohlikka loyiq bo‘lgan boshqa kishini topishni maslahat beradi. Bular taxt uchun to‘xtovsiz qirg‘inlar, fitna-fujurlar uyushtirilayotgan bir davrda Navoiy orzu qilgan mukammal shahzodalar edi.

Navoiy bundan ham yuqori ko‘tarilib, juda muhim g‘oyani olg‘a suradi: Iskandar davlatni boshqarish masalasini, ya‘ni shoh bo‘lishga arziydigan shaxs topishni bevosita xalq bilan, jamiyatning turli tabaqa vakillari ishtirokida muhokama qiladi:

...Ulusni yig‘ib, tuzdi bir anjuman,
Chu yaksar yig‘ildi sharifu vazi’
So‘ze qildi og‘oz behad bade’:
“... Bu ishga keraktur tavono kishi,
Emas men kibi notavono ishi...
Siz emdi o‘zungizga shohe toping
Bu kishvarga kishvarpanohe toping...
Anga taxtu davlatni maskan qiling,
Boshin toj birla muzayyan qiling..”

Bugina emas. Bo‘lajak shohga shart ham qo‘yadi, jumladan, u:

Berib zulmgustarga farsudaliq,
Raiyatqa yetkursun osudaliq! [IV.23,159]

Lekin “anjumanga yig‘ilgan” xalq Iskandarning o‘zining shoh bo‘lishini qat’iy talab qiladi. Shohlikni xalq, xohishiga ko‘ra qabul qilgan Iskandar yig‘ilgan ulus oldida xaloyiqqa so‘z aytib, o‘zini oddiy fuqaro hisoblab, taxt va tojdan hayiqmay, xalqqa o‘zlarining dardu g‘amlarini aytaverishni da’vat etadi, dardiga odilona marham berishga vada beradi:

Qoshimda so‘zin arz aylar zamon,
Meni bir o‘zi yanglig‘ etsun gumon! IV.23,201]

Xalqparvarlikning yana bir namunasi “Farhod va Shirin” dostonidagi Bahrom obrazida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bahrom mard, jasur adolatparvar va xalqparvar shaxs. U yoshlikdagi do‘sti Farhodni unutmaydi, uni izlab Armanistonga keladi. Farhod bilan Shirinning o‘limi unga qattiq azob beradi. Bahrom Armanistonni ozod etish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. U Sheruyani mag‘lub etadi. Armanistonning xarob qilingan joylarini qayta tiklaydi. Mamlakatda osoyishtalik o‘rnatadi. Yoki “Saddi Iskandariy”da Iskandar Droni yengishi bilan xalqni har xil xirojlardan ozod qilishini misolga olaylik. Iskandar shoh bo‘lgandan so‘ng xalqqa erkinlik beradi. Otasi zamonida zulm ko‘rganlarni zulmdan ozod qiladi. Zolimlarni jazoga mahkum qiladi, xalq birin-ketin Iskandarga arz-hol qila boshlaydi. Navoiy bu o‘rinda shohni xalq orzusidan kelib chiqib, keng mehnatkashlar ommasiga atayin yaqin tasvirlaydi. Xalq yuragidagi dard-alamlarning barchasini podshoga to‘kib soladi:

... Uls boshladi arzi hol aylamak,
Skandar bila qiylu hol aylamak.
Sahardin anga tegrukim istivo,
So‘rub, xalq dardig‘a qildi davo.
... Bu yanglig‘ quyub adl bunyodini,
Yarim kungacha berdi el dodini.
Tamomin ulus boshidin qildi daf‘,
Yetushsun deb andin haloyiqqa naf. [IV.23,165]

Shoir bu yerda shahzodaning xalqparvarligini, yani, xalq oldidagi mas‘uliyatli ishni qay darajada yuksak ekanligini ko‘rsatadi.

Navoiy xalqparvarlik g‘oyalarini “Sabbai sayyor” dostonida yana ham chuqur aks ettiradi. Jumladan, u Bahrom obrazi orqali shunday xitob qiladi:

... Elni shod aylamak kerakdurmen,
Adlu dod aylamak kerakdurmen.[IV.28,133]

Alisher Navoiy davlat mansablarida ishlab yurgan kezzlarida ham, ijodiy ish bilan band bo‘lgan paytlarida ham xalqning sertashvish hayotidan chetda tura olmadi. Shuning sababli ham u “Farhod va Shirin” dostonining yakunida

xalqning tashvishli mehnatidan charchashi natijasida o‘z asarini tezda yozib tugallashga imkoniyati yo‘qligidan zorlangan edi.

Shoir “Sabbai sayyor” dostonida bu fikrni yanada chuqurlashtirib, shunday deydi:

...Yo‘q kunu kecha hurdu xob manga,
Kecha g‘am, kunduz iztirob manga.
El g‘ulusi qilib meni mabhut,
G‘am ko‘ngulg‘a g‘izou jonima qut. [IV.28,134]

Dostondagi bu misralar haqida navoiyshunos A. Hayitmetov shunday yozgan edi: “...shoirlarga tinchlik bermagan, uni o‘z holiga qo‘ymagan kishilar ana shu jafo chekkan, ko‘ngli g‘am-anduh bilan to‘lgan adolat, insof qidirgan mazlumlar edi. Shoh huzurida ularning birdan-bir ishongan, suyangani kishisi Navoiy edi va o‘zining eng ko‘p vaqtini shoir umr bo‘yi shularning arz-dodlarini eshitishga, ularga yordam qilishga sarf qilgan edi”. [V.45,128]

Shunday qilib, insonparvarlik g‘oyalarini, ozod hayotni kuylagan Navoiy ko‘p masalalarda o‘z zamonining ilg‘or insoniylik fikrlarini aks ettirib, badiiy ijodda xalqparvarlikni juda baland yuksakliklarga ko‘tardi.

II bob bo'yicha xulosa.

Navoiy Iymonni insoniylik nishonasi deb bildi. "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"da dastlabki bobni iymonga bag'ishladi. Navoiy fikrlaridan kishilarni iymoniga qarabgina yaxshi va yomonga ajratish mumkin, degan fikr kelib chiqadi. Hazrat Alisher Navoiy uchun Iymon hayot-mamot masalasi, u dunyoga ketar mahal kishiga yo'ldosh bo'la oladigan yagona sherik hisoblanganki, buni u "Xamsa"da to'la-to'kis bayon qila olgan.

Navoiy mamlakat va xalqning osoyishta yashashi uchun dastlab shoh adolatparvar, xalqparvar bo'lishi lozim, deydi. Shuning uchun ham u o'z davridagi zolim hukmronlarni adolatga chaqirishda uzoq o'tmishda yashab o'tgan shaxslarning adolatli va xalq uchun qilgan ishlarini ularga o'rnak qilib ko'rsatadi. U "Xamsa"ga kirgan qator dostonlarida Anushervon, Hushang, Feruzshoh va Iskandar kabi tarixiy shaxslarning ibratli ishlarini qayta-qayta tilga oladi.

III BOB: “XAMSA” DA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TARG‘IBI

1. “Xamsa”da ijtimoiy adolat, tenglik va shaxs erki masalasi.

Butun umrini el-yurt farovonligi yo‘lida ezgu ishlarga baxshida etgan Alisher Navoiyning ulug‘ shoir va mutafakkir hamda yirik davlat arbobi sifatida ko‘rsatgan faoliyati bashariyat tarixida unutilmas sahifadir. Alisher Navoiyning odil hukmdor davlatni qanday boshqarishi kerakligi to‘g‘risidagi qarashlarining hayotiyligi shoirni o‘quvchi ko‘z o‘ngida ijtimoiy – siyosiy hayotga faol aralashib yurgan va unga aniq nazar bilan yondashgan shaxs sifatida gavdalandiradi. Shoir insoniyatning azaliy orzusi bo‘lgan adolatli jamiyatga ma’naviy barkamol podshohning odil siyosati zarur deb biladi. “Hayrat ul-abror” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida o‘z orzusidagi odil podshoh timsolini yaratadi va bu podshohning siyosati tifayli vujudga kelgan kuchli davlatchilik g‘oyalarini tarannum etadi. Alisher Navoiy “Qur’on” g‘oyalariga asoslangan holda “podshoh – Ollohning yerdagi soyasi, Olloh unga bu vazifani to‘g‘rilik, halollik va odillik bilan bajarishni topshirgan”, deydi va hukmdorlikning mavjudligini Ollohning amri bilan biladi:

Haqqi, solib soyayi ra’fat sanga,

Ro‘zi etib taxti xilofat sanga [IV.31,118]

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidagi shahzoda Badiuzzamonga bag‘ishlangan yigirmanchi maqolotda do‘sti Husayn Boyqaro taxtining munosib vorisi sifatida unga mamlakatni odilona siyosat bilan boshqarish haqida nasihat qilar ekan, bu bilan o‘z orzusidagi odil podshoh sifatlarini shahzoda Badiuzzamonda ham shakllantirishga harakat qiladi. Uning bu nasihatlarini odil podshohlarga yo‘riqnoma, deb ham atash mumkin. Chunki, Alisher Navoiy nazaridagi odil podshoh mamlakatni islom dini va Muhammad alayhissalom sunnatlari asosida adolat bilan boshqarishi; qat’iyatli bo‘lishi; davlat ishlariga kishilarni tayinlashdan oldin ularni har tomonlama sinovdan o‘tkazishi; siyosat yuritish va hukm chiqarishda ehtirolarga berilmay, aql ovozigacha quloq tutishi; zarur o‘rinlarda kechirimli bo‘lishi, ya’ni nohaqdan, tuhmat bilan aybdor deb topilgan kishilarga

adolatpeshalik qilishi; hech qachon qalbida kin, adovat saqlamasligi, qasddan birovning aybini boshqa birovning bo'yniga qo'ymasligi, ya'ni xolis bo'lishi; har bir ishni kengash asosida qilishi; doimo el-yurt ahvolidan, kayfiyatidan boxabar bo'lishi; davlat ahamiyatiga molik har bir ishni o'z vaqtida hal qilishi lozim. [VI.75,43]

Komil insonga xos sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan shoir orzusidagi podshohning adolati uning yaxshilarga muruvvatli, yomonlarga esa qahriligidadir:

Bo'lsa kerak fikr ila shohi zamon,

Yaxshig'a yaxshi-yu, yomong'a yomon. [IV.31,324]

Amir Temur, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy va boshqa mutafakkirlar... ijtimoiy adolatga hamnavast umumiy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashib, adolatni yaxshilikni amalga oshirishdagi vosita deb ham tushunganlar. Jumladan, "Temur tuzuklar"ida "Sulton har narsadan adolatpesha bo'lsin, qoshida insofli, adolatli vazirlar saqlansin, toki podshoh zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin", deb yozadi. [V.45,93]

Navoiy "Saddi Iskandariy"da "har qanday mamlakat shohi davlat ishlarini boshqarmoq uchun adolatni o'ziga shior qilib olmog'i kerak" degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, "shoh o'z adolati bilan xalqni ma'mur qilishi kerak, qaysi bir shohning insof va adolati bo'lmasa, uning mamlakati obod bo'lmaydi va xalqi farovon hayot ko'rmaydi; Binobarin, shoh adolatli bo'lishi, zulmkor kishilarni tuban tutishi, o'zgalarga hech qanday kun bermasligi lozim; Xalq adolatga asoslangan intizom bilan yashasa, shoh ulus aro eng azizu mukarram bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

"Hayrat ul abror"da:

Shohki ish adl ila bunyod etar,

Adl buzuq mulkni obod etar.

Kofiri odil ani obod etib,

Mo'mini zolim ani barbod etib.

Shahki erur adl ila davron anga,

Bo'ldi sirat o'tmagi oson anga. [IV.31,322]

Navoiyning bu xususdagi ijtimoiy qarashlaridan shohlarning adolatparvarligi ularning millati, irqi yoki diniy e'tiqodlaridan iborat emas, balki ularning adolat yo'lini tutib, xalqning mol va nomusini saqlash va uni zulmdan himoya qilishdan iboratdir, degan xulosa kelib chiqadi.

Eronlik faylasuf Jaloliddin Davoniy "Axloqi Jaloliy" asarida adolat uch qismga bo'linib, o'n ikki turi haqida fikr yuritiladi:

- Mulk va yaxshilik bilan bog'liq.
- Mol almashinishida o'z ifodasini topadi.
- Siyosat va tarbiyaga daxldor bo'lib, bunda "mo'tadilikka roiya qilishga, shariat qonun-qoidalarini bo'yicha ish tutishga kishilarni da'vat etadi". [V.64,50]

Navoiy adolat g'oyasini hayotdan olingan misollar asosida har tomonlama keng ma'noda tasvirlaydi. Bu Navoiyning "Xamsa", "Mahbub ul qulub" va boshqa asarlarida ijtimoiy adolatni axloqiy, siyosiy va huquqiy qismlardan iborat tasavvurini ko'plab uchratamiz.

Navoiy dunyoqarashida adolat axloqiy tushuncha sifatida birinchidan, hukmdorning ma'naviy qiyofasini belgilovchi ta'rif, ikkinchidan esa, ijtimoiy tuzum va ijtimoiy munosabatlarga bildirilgan fikrdan iborat mutafakkir adolat qoidalarini yetakchi o'ringa qo'yarkan, hukmdorlarning o'z oldidagi muhim ijtimoiy vazifalari va majburiyatlarini ko'rsatadi, ulardan xalqqa nisbatan insoniylik va mehr-shafqat talab qiladi. "Mazlumg'a baxshoyish ko'rguzki, - deb yozadi "Mahbub ul-qulub" asarida, - zolimdin osoyish ko'rgaysen. Zerdastlarga naf' yetkur, agar tilasangki, zabardastlardin zarar ko'rmagaysen". [IV.26,54]

Mutafakkirning bu fikridan shohning nufuz-e'tibori, shoh hokimiyatning barqarorligi insoniylik va odillikka asoslanishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi.

Qur'onda ham "Suygan narsalaringizdan infoq-ehson qilib bermagunigizcha hargiz yaxshilikka yetmagaysiz", deyilgan. [VI.78,4] Shu nuqtai nazardan qaraganda, Navoiy o'rta qo'ygan adolat g'oyasi hamma uchun barobar odob

qoidalariga umumiy-axloqiy qadriyatlarga asoslanadi:

Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,

O'zingga ravo ko'rmaganni ravo. [IV.31,480]

Bizningcha, Navoiy dunyoqarashida ijtimoiy adolat insoniylik tushunchasini ham o'z ichiga oladi. Mutafakkir insonni odil ishlarga undovchi asosiy omillar axloqiy qadriyatlardan iboratligini tushunadi. Uning dunyoqarashicha, hukmdorlar yuksak axloqiy sifatlarni o'zlarida mujassamlashtirmas ekanlar, yaxshi ishlarning ro'yobga chiqishi mumkin emas. Navoiy hukmdorlardan adolat qilar ekan, uning mohiyatini, boshqalarga yomonlik qilmaslik, xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishda deb biladi.

Bizningcha ham, odil podshohsiz, ya'ni adolatli rahbarsiz hech qanday mafkura bo'lishi mumkin emas; hukmdorlar faoliyatining mezoni adolat, ular ma'naviy qiyofasining belgisi esa insoniylik bo'lishi kerak. Shunday sifatlarga ega bo'lgan rahbar bilan xalq o'rtasida uzviy aloqa o'rnatiladi. Shu tufayli har bir rahbar o'z mamlakatida yaxshi ishlardan ham yomon ishlardan ham xabardor bo'ladi.

Demak, odamzod bor ekan, olam bor ekan, olm ichida odamzod yashar ekan, adolat bilan olam yuzini obod qilish, yaxshi xulq bilan dunyodagi odamlarni shod qilish kerak. Bu g'oyalar Navoiyning umuminsoniy qadriyatlar masalasida yaxshilikni targ'ib etuvchi asosiy tezisi hamdir. Chunki u umumiy-axloqiy qarashlarida yaxshilikning barqaror bo'lishi, yomonlikning yo'qotilishi, yaxshilikdan o'rnak olish, yomonlikdan nafratlanish kabi qadriyatlarga asoslanadi.

Navoiy axloq va aql haqiqat mezoni, ijtimoiy adolatni barqaror etuvchi omil bo'lgani uchun axloqiy kamoloti intilishni har biro dam uchun zaruriy fazilat deb biladi. Uning orzusidagi yuksak insoniylik yuksak axloq qoidalariga amal qilishdir.

Navoiy orzusida adolat siyosiy tushuncha sifatida, bir tomondan, ayrim shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga niabatan ma'naviy baxo berilsa, ikkinchi tomondan, podshoh va hukmdor doiralarning ijtimoiy faoliyatiga

berilgan ta'rifnomasi, ularning ma'naviy qiyofalariga nisbatan baho sifatida namoyon bo'ladi. Navoiyning adolat g'oyasi faqatgina shohlarga nisbatan emas, balki butun jamiyatning ma'naviy va siyosiy holatlariga nisbatan ham berilgan bahodan iborat umumiy qadriyatlar sifatida ifodalanadi. Adolatli bo'lish, Navoiy fikricha, oliy axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni ham toqozo etadi. Inson ma'naviy jihatdan ham, amalda ham poklik mavjud bo'lgandagina yaxshi ishlar yuzaga chiqishi mumkin. Uning fikr-mulohazalarida adolat g'oyasining siyosiy ma'noni mavjud ijtimoiy –siyosiy munosabatlarga, butun jamiyat tuzumiga nisbatan berilgan bahodan iborat bo'lib, davlatni boshqarish mafkurasining asosiy negizi sifatida namoyon bo'ladi. Mutafakkir hukmdorlardan adolat talab etarkan, avvalo o'zi shu talabga rioya qiladi.

“Makorim ul axloq”da: “Amirlik taxtini va hukumat masnadini o'zining muborak qadami bilan ziynatladi va jabr-jafo raqamlarini davron sahifalaridan mahv qilib, adolat va insof eshiklarini insoniyat yuziga ochib qo'ydi”. [V.68,64]

Navoiy ijtimoiy qarashlarida adolat huquqiy tushuncha sifatida hukmdorlarni davlat ishlarini mavjud qoidalar va qonuniylik asosida boshqarish zarur bo'lgan vazifalarni ifodalaydi. Ana shu qonuniylikka rioya qilganda, uningcha, jamiyatda yomon ishlarga yo'l qo'yilmaydi, yomonlar jazoga tortiladi, yaxshilar tagdirlanadi. Huquq ma'nosida adolat odamlarning davlat qonun-qoidalariga munosib bir-biriga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi hamda har kimning qilmishiga yarasha chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi tushuncha sifatida tasavvur etiladi. Bunday qarash uning “Farhod va Shirin” asarida mavjud.

Halol amrida davron keldi cholok... [IV.29, 100]

Navoiyning bu g'oyasidan, adolat jamiyat hayoti sahifalaridan jabr-zulm raqamlarini mahv qilib, insonlarga mehru vafo eshigini ochib beruvchi vositadir, degan xulosa kelib chiqadi.

... podshohlarga amaliy maslahatlar va tavsiyalar beradi:

Erur turfa bukim, salotin aro... [IV.29,106] Xalqqa yaxshilik qilgan shohni Haq adlu ehsonga doxil qiladi. Agar u xalqqa zulm yetkazsa, bularning hammasi

uning o‘z joniga qiyinchilik bo‘lib tushadi. Navoiyning bu g‘oyasi Qur‘ondagi “Kim birovga yaxshi amal qilsa, o‘zi uchundir. Kim yomonlik qilsa, o‘z ziyoniga qilur” oyatiga ishoradir [VI.68,3].

“Mahbub ul qulub”da “odil podshoh haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat” [IV.26,10]. U xalqqa g‘amxo‘rlik qilish, mazlumlarni zolimlardan himoya etish kabi adolatli ishlarning hammasi podshohning xudo oldidagi burchi, degan g‘oyani ilgari suradi. “Saddi Iskandariy”da o‘z ifodasini topgan. Seni ayladi tengri o‘z soyasi [IV.27,104].

Navoiyning podshohga murojaat qilib aytgan fikrlari ohang keskinligi, mantiq chuqurligi va murosasizligi bilan g‘oyatda ta’sirchan, hamda o‘zicha orginaldir. U “xalq poda bo‘lsa, sen cho‘pon, u mevali bog‘ bo‘lsa, sen bog‘bon. [IV.27,105].

Bil munikim, sen ham bir bandasan,

Aslida ularning ko‘plaridan ojizu afgandasan” .[IV.27,122] deydi.

Navoiy dunyoqarashida adolatning mohiyati kishilarni baxt-saodatga yetkazishdan iboratdir. Navoiy agar podsho adolatli va saxovatli bo‘lsa, mamlakat obod bo‘lib, xalq osoyishta yashaydi deb ishonardi, binobarin u:

Adl ila olam yuzin obod qil!

Xulq ila odam elini shod qil! [IV.31,313]

deb podshohlarga xitob qiladi.

Biroq, Navoiyning bu hikmatli nasihatlariga xatto Husayn Boyqaro ham amal qilmaydi. Aksincha, ayshi-ishratga, fisq-fujurga beriladi, xalqqa cheksiz darajada zulm qiladi, poraxo‘rlik avj oladi. Navoiy bu holdan qattit hayajonga tushib, o‘zining shoyoni tahsin «Zolim podshohlar haqida»gi maqolatini yozdiki, bu asar podshohlik tuzumi uchun la’nat tamg‘asi bo‘lib qoldi. Unda, shohlar buzuqchilik va kayfu-safo bilan mashg‘ul bo‘lgan qasrning pardalari rishtasi el jonidan, bezaklari xalq qonidan ekanini, g‘ishtining masjid buzib keltirgani va toshining el qabridai tashib kelinganini rostgoylik bilan ko‘rsatib o‘tadi:

E ki qavi ayladi davlat qo‘ling,

Zulm sari tushdi va lekin yo‘ling.
Qasrki bazm anda muhayyo bo‘lib,
Zinati firdavsi muallo bo‘lib,
Pardalari rishtasi jonidin,
La‘li-yu shingarfi ulus qonidin. [IV.31,218]

XV asr minbarida turib, bunday isyonkorona ko‘tarilish, podsholarga qarshi bu qadar otashin, bu qadar keskin va bu qadar fosh etuvchi so‘zni aytish uchun Navoiyday mard va xalqning jonajon do‘sti bo‘lish kerak edi.

“Hayrat ul-abror”ning “Riyokor shayxlar haqida”gi bobi ham keskinlik bilan yozilgan. Navoiy, din nomidan savdogarchilik qilib yurgan bu haromxo‘rlar to‘dasidan, eng iflos narsadan jirkangan kabi jirkanadi. Xalq orasiga xurofat tarqatib yurgan bu razil kishilar toifasini shu qadar yomon ko‘radiki, yomonlikda ular bilan tenglashtiradigan hech narsa topolmaydi:

Bu el erur barcha yomondin-yomon,
Har ne andin yomon, andin yomon...

Navoiy hatto tamug‘ (do‘zax) o‘tini ularga hayf ko‘radi.

Leyk, tamug‘ ham bu necha g‘ashga hayf...

O‘t dag‘i bu xayli dag‘alvashga hayf...[IV.31,138]

“Hayrat ul-abror”ning uchinchi maqoloti «Salotin bobidakim,...adolatlari «ayn»ining chashmai zuloli mulk bo‘stonin serob qilg‘ay, to bu bo‘stonidin. amniyat va farog‘at gullari ochilg‘ay...» tarzida boshlanadigan sarlavhaga ega. [IV.31,121] Demak, maqolotda so‘z podshohlar va ularning adolatli bo‘lishlari lozimligidan bormoqda. Darhaqiqat, maqolotda aniq bir podshoh misolida emas, balki umumlashtirilgan holda so‘z yuritilgan. Unda podshohning mamlakat va xalq oldidagi burch va vazifalari-adolatli bo‘lish, mulkni obod qilish, osoyishtaligini saqlash, fuqarolarni himoya qilish belgilangan. Shuning bilan birga podshohning bu vazifalarni bajarish o‘rnida adolatsizlikka yo‘l qo‘ygani, aysh-ishratga berilgani, kecha-kunduz fisq-fujur yaramas ishlar bilan band bo‘lgani kabilarga e‘tibor qaratilib, bu hol podshohlikdan kuzatilgan asosiy maqsaddan uzoq ekanligi alohida uqtiriladi va bu yo‘ldan qaytib, adolatli

bo'lishga da'vat etiladi:

Haq seni adl etgani sulton etib,
Zulm ila sen xalqni vayron etib...
Necha bu bexudluq ila yilu oy,
Voy, agar kelmasang o'zungga voy...[IV.31,128]

Maqolotning oxirida, ya'ni ikkinchi qismida esa Shohi G'oziyning adolati mavzusida bir hikoyat keltirilgan. Ma'lumki, Shohi G'oziy laqabi XV asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaroga nisbatan qo'llanilgan. Demak, Alisher Navoiy bu hikoyada Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidan bir lavhani badiiyat qoniyatlari asosida qalamga olgan. Hikoyatda Shohi G'oziy adolatligi bilan hurmat qozongan podshoh sifatida talqin qilingan. Shuning bilan birga unda qonun oldida shohu gadoning tengligi muammosi amaliy tarzda tasvirlangan: bir kampir Shoh G'oziyga da'vogar bo'lib, aytadi: sen urushlaring vaqtida o'g'lumni o'ldirding. Endi shar'iy qonun oldida javobini ber. Shoh G'oziy rozi bo'lib, qozi oldiga keladi. Qozi ularni shariat qonunlari asosida kampirning da'vosini eshitadi va guvohlar so'zlarini ham tinglaydi. Shunda Shoh G'oziy: shunday bo'lishi mumkin. Agar maqsading boshimni olish bo'lsa, mana senga tig' va mening boshim, agar maqsad qon puli bo'lsa, mana senga boylik, deb hamyonlarni qo'yadi. Bu holni ko'rgan kampir:

Tushti ayog'iga bo'lub uzrxoh,
Dediki: Ey, xusravi anjumpanoh.
Gar yigitim qildi fido jon sanga,
Men qari joni dog'i qurbon sanga...
Zol kechib da'viyu dostonidin,
Yo'qki, o'g'ul qonidin, o'z jonidin.
Turfa bukim xusravi odil ani,
Adl ila ul davrda aylab g'ani. [IV.31,132]

Demak, Alisher Navoiy bu hikoyada juda katta va muhim masalani hal qiladi: qonun oldida shohu gado tengdir, ikkinchidan, bu hodisa adolatning barqaror bo'lishi uchun asosiy omil hamdir. Albatta, bu Alisher Navoiyning

orzusi edi, Alisher Navoiy shunday sharoit va shunday zamon bo'lishini xohlardi.

Agar biz hozirgi kunda istiqloлга erishgan O'zbekistonda jamiyatni isloh etishning Prezidentimiz I.Karimov tomonidan chuqur ilmiy tarzda asoslagan besh mashhur tamoyilning uchinchisiga nazar tashlasak, unda shunday yozilganining guvohi bo'lamiz: "Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim". [III.8,154]

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ajdodlarimiz, jumladan Alisher Navoiyning ijtimoiy hayot, qonunning ustuvorligini ta'minlash haqidagi orzulari istiqlolimiz davrida yangi davr va zamon talablari asosida amalga oshmoqda.

Navoiy huquqiy qarashlari, demokratik fikr-mulohazalari hozirgi davr sharoitida yoshlarimizda siyosiy ong, madaniyat, huquqiy xotirani tiklash, qonunchilik xalqimiz, millatimizga xos bo'lgan zukkolik, oqillik va qat'iylikni jonlantirishga dasturulamal bo'la oladi. Mutafakkirning ijtimoiy adolat xususidagi g'oyalari muayyan tarixiy haqiqatni tushunib olishga intilish, mintaqada mustaqil davlatchilikning rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oddiy xalqqa g'amxo'r bo'lish, ilm ma'rifatni egallashga chaqirish, ma'naviyat homiysi bo'lmish hukmron shohning mavqeini alohida ta'kidlash, birodarkushlik urushlarini tanqid qilish, adolat g'oyasiga sodiq qolish, islom dinining insonparvarlik imkoniyatlaridan foydalanish bilan nazariy-amaliy asoslanadi.

Xullas, ko'pgina Sharq mutafakkirlari, davlat arboblari singari Alisher Navoiy ham mamlakat obodligi, el-yurt osoyishtaligining sababini ma'naviy barkamol podshohning odil siyosatida deb biladi.

Jamiyatda tinchlik, tenglik va adolat o'rnatish kabi umumiy qadriyatlar barcha tarixiy davrlardagi buyuk mutafakkirlarning diqqat e'tiborida turgan eng muhim muammolardan biridir.

Farobiy: "odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi iptido-insoniylikdir.

Shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lganligi uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim". [V.68,186]

V. Zohidov: "Navoiy urushlarni ikki xilga bo'ladi. "Zararli" va "aqlga muvofiq" boshqalar yerini bosib olish va tolon-taroj qilish uchun boshlanadigan urush zararli u bu urushga va uning sababchilariga qarshi turadi. Shoh va uning atrofida gilar Vatan uchun, xalq himoyasi uchun, uning or-nomusi va qadr-qimmatini tajovuzlardan muhofaza etish zarurati tug'lsa, bunday urush insoniyat aql-zakovatiga batamom muvofiq urushdir; aks holda dushman yurtini xonavayron etgan hamda tinch va osoyishta turmush kechirayotgan xalqni talagan bo'lar edi. Qo'shni xalqlarni turli talonchilik urushlardan himoya qilish odil ish, shu maqsadda boshlangan urush ham odilona urush hisoblanadi. Bular hammavaqt Navoiy tomonidan ma'qullanadi va quvvatlanadi"[IV.43,140].

Birov ma'niga gar topar dastras... [IV.27,114]

Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarida urush - jahon ichiga tushgan to'fonga o'xshatiladi. Urush bu- to'fongina emas, balo dengizining chayqalmog'i, jahon ahlining suv ostida qolmog'i demakdir; jahondagi mamlakatlardan osoyishtalik yo'qoladi, bu mamlakat xalqlari tinchlik-omonlikdan mahrum bo'lib qoladilar. Urush –bu dovul! Dovulgina emas, g'am va anduhning selidir. Undan butun dunyo xalqlariga kulfat va alam yetadi deb yozadi "Saddi Iskandariy"da. [IV.27,589]

Demak, Navoiy uchun urush eng avvalo, xalqning osoyishta va bunyodkorlik hayotini buzuvchi narsa bo'lib, u muqarrar ravishda xalqning xo'rlanishiga va turli ofatlarga olib keladi. Xalqqa zo'ravonlik qilishni, u eng ulkan yovuzlik deb qoraladi va shu sababli avval boshdanoq mutafakkir o'sha davrda avj olib ketgan qon-qardoshlar urushlari va turli falokatlarga qarshi kurashishga harakat qiladi.

Yer yuzidagi xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash masalasiga katta ahamiyat kasb etgan hozirgi zamon sharoitida bu fikrlar yanada diqqatga sazovordir.

Navoiy yaxshi kishilarga, insofli va vijdonli kishilarga himoyachi bo'lish

birga, noinsoflarga, vijdotsizlarga, xalqni talovchilarga nisbatan juda ham shafqatsiz, ularning juda ham “tosh yurak” bo‘lganligini ko‘rsatadigan dalillar ham juda ko‘pdir. Masalan, Vosifiy “Badoe ul – vaqoe” asarida Navoiy tomonidan jinoyatchilarga nisbatan qo‘llagan bir qancha qattiq jazolarni ko‘rsatgan [V.72,116].

“Hayrat ul abror”da:

Lutfu karam garchi erur dilpazir,

Qahru siyosat ham erur noguzir. [IV.31,324]

Navoiy tinchlik tushunchasini keng ma’noda tushungan. U tinchlik deganda, xalqlar va davlatlar o‘rtasida zo‘rlilik ishlatmasdan tashqi siyosat olib borishga asoslanadigan munosabatlarni, davlat o‘rtasida uyushtirilgan qurolli kurashlarning yo‘qligi, hukmdorlar va shahzodalar o‘rtasidagi mojarolarning barham topishini nazarda tutadi.

Navoiy dunyoqarashidan tinch-totuv yashashning beshta muhim tamoyillari kelib chiqadi. Bularni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

- 1.Hududiy butunlikni va mustaqillikni o‘zaro hurmat qilish.
- 2.Hujum qilmaslik.
- 3.Bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik.
- 4.Tenglik va o‘zaro manfaatdorlik.
- 5.Tinch-totuv yashash.

Navoiyning bu g‘oyasi nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki, hozirgi davr sharoiti uchun ham eng muhim va dolzarb muammo hisoblanadi.

Mutafakkir: U har qanday urushni odam tabiatiga xilof deb bilgan va unga qarshi kurashishga, urush boshlovchilarni xaloyiq hukmiga topshirishga da’vat etgan. Munozarali masalalarni hal qilish vositalari sifatida urushdan, kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish xavfidan voz kechishni, bu masalani muzokaralar olib borish, sulh tuzish yo‘li bilan hal qilishni taklif etgan. U sulhning mazmuni va ta’sir kuchi g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligini o‘zining “Saddi Iskandariy” asarida falsafiy tarzda ifodalaydi:

Base, yaxshi so‘zlarga xalil edi,

Risolat tariqida koyil edi. [IV.27,137]

Navoiyning insonga va tinchlikka bo'lgan munosabati samimiy va mislsiz edi. Uning inson va tinchlik dushmanlariga, urush va talonchilarga nafrati cheksiz va murosasizdir.

Umuman, Navoiy jamiyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan urush dahshatlarini oldini olish uchun ajoyib g'oya – xalqlar do'stligi, hamkorligi va tinch-totuvlik kabi umumiy qadriyatlarni yoyib chiqqan buyuk daxolardan biridir. Uning ijodi va ijtimoiy faoliyatida bir xalq ikkinchi bir xalqdan ustun qo'yilmagan edi. Xitoylik Farhod, arman qizi Shirin, Eronlik Shopur, Arab qizi Layli, Qays, Yunonlardan Arastu, Suqrot va boshqalar turli xalqlarga mansub bo'lishlariga qaramay, fikr va intilishlarida umumiylik bor, ularni oliyjanob tuyg'u- mamlakatlarda tinchlik va osoyishtalik o'rnatish hamda urushda har xil irqiy kamsitishlarni bartaraf etish singari umumbashariy qadriyatlar muammosini hal etish yo'lidagi fidoyilik tuyg'usi birlashtiradi.

Navoiy ulug' bir shoir va sifatida urush va qon to'kishning ashaddiy dushmani hisoblanadi. U tarixiy mavzuda jangnoma yozayotgani holda "Saddi Iskandariy"ning "Muxolifat! Muzammati" degan bobida adovat bilan urushayotgan, podshohlarni qattiq masxaralaydi, ularga o'zining g'azab va nafratini sochadi. Urushning mudhish manzaralarini, dahshatli oqibatlarini zo'r san'atkorlik bilan tasvir etib, tinglovchida bu xil ma'nosiz qon to'kislarga qarshi, nafrat hislari uyg'otadi. Navoiyning nazarida urush:

Bu go'yo jahon ichra to'fon erur,
Ki andin jahon ahli vayron erur.
Ne to'fon, balo bahri chayqalmog'i,
Jahon ahli suv ostiga qolmog'i,

Bu dahshatli va mudhish kushxona Navoiy yashagan davr voqeligining manzarasidir. Ayniqsa:

Ato jon berib, o'g'lin ulturgali,
O'g'ul ham anga tig'i kin surgali.
Qarindosh topsa qarindoshini,

Damodam tilar kesgali boshini. [V.58,119]

Navoiy bu dostonida adovat va noittifoqlik orqasida ro'y bergan qirg'inlarni tanqid qilib, ittifoq bo'lishga undaydi. Bu ittifoq boshlica xalq bilan shoh orasida, shoh bilan sipoh orasida bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan Navoiy dostoniga yana o'z davri voqeligini kiritadi. Bu gal shahzoda Abusaid haqida hikoya qiladi:

Xuroson, Mavoraunnahr, Xorazm va Qashqarni o'ziga qaratgan Sulton Abusaid, faqat o'z xohishi bilan ish ko'radi. Qo'shini to'g'risida g'amx'rlik qilmaydi, hamma g'alabalarning boisi deb o'zini hisoblaydi. Qo'shin podshohdan norozi bo'ladi. Shu ahvolda u Tabrizga hujum qiladi. Urush cho'zilib qat'iy va hal qiluvchi paytlar kelganda, Sulton Abusaiddan norozi bo'lgan askarlarning bir qismi urishmay ketib qoladi, bir qismi dushman tarafiga o'tadi. Shunday qilib, bu qo'shinsiz shoh mag'lub va halok bo'ladi.

Navoiy Sulton Abusaidning shu g'amgin hikoyasidan xulosa chiqarib, shohning kuch va qudrati uning xalq va qo'shin bilan jips bog'lanishida deb hisoblaydi. Qo'shindan ayrilgan shoh — notavon, kimsasiz bir shaxs, gulistondan ayrilgan gul, badansiz ko'ngil bo'lib qoladi; shoh bilan xalq oshiq-ma'huqlardek bir-birini sevishi kerak deb uqtiradi.

Sipahdin judo shah erur bir kishi,

Na bo'lg'usidur bir kishining ishi?

Qurur, chun gulistondin ayrildi gul,

Ki bir luqma etdur badansiz ko'ngul. [IV.27,347]

Navoiy fikricha, mamlakatning tinchligi, xalqning osoyishtaligi va ma'rifatning zulmat ustidan g'alaba qozonishi uchun Isdandar kabi hikmatshunos bir shoh bema'ni urushlarga qarshi urush ochib tinchlik o'rnatishi va insonlar istagini yuzaga chiqarishi kerak edi.

Shuning uchun Navoiy Iskandari butun davlat usuli idorasida, shuningdek harbiy yurishlarida Arastu, Aflotun, Suqrot kabi bir qancha olimlar va faylasuflarning maslahati bilan ish ko'radi. U hech yerda o'zboshimchalik, manmanlik qilmaydi. Iskandar idorasini xalqqa yaqinlashtirgan, uning qudratiga

qudrat qo'shgan asosiy omil ham mana shu. Iskandar qanday katta ish boshlamochi bo'lsa, avval shu olimlar bilan kengashadi. Masala muhokamaga qo'yilganda har bir faylasuf o'z fikri bilan maydonga chiqib, shu haqda o'z fikr va mulohazalarini aytishga, o'z reja va loyihalarini tagdim qilishga haqli. Jang vaqtlarida bu masalaga yanada kuproq diqqat va e'tibor qilinadi. Ya'ni jangda quroldan ko'ra aql, farosat ko'proq ishtirok qiladi. Iskandarning o'zi, uning atrofini o'ragan haligi ulug' olimlar mohir diplomatiya yo'li bilan ish olib boradilar. Shuning natijasida butun olam bosib olinsa ham qon to'kilmaydi. Iskandar o'zi, jahonni qanday fath qilganligi haqida bir maktubida shunday deydi:

Ki fath ayladim, aqlu tadbir ila,

Chu tadbir edi rost tagdir ila. [IV.27,268]

Darhaqiqat, tadbir, aql va idrok bilan ish qilinmasa, Iskandar bu qadar olamshumul g'alabalarga erisha olmas edi. Agar Aflotun ilm-hikmat bilan Kashmir tilsimlarini ochib bermasa, Iskandarning bu sehrgarlar mamlakatiga qilgan hujumi samarasiz barbod bo'lardi. Bugina emas, Iskandar o'ziga qorong'i bo'lgan ko'p siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, falsafiy va strategik masalalar haqida Arastu, Aflotun va Suqrotga so'roqlar berib, ularning hikmatli javoblarini o'zining siyosiy faoliyati uchun dasturulamal qilib oladi.

Shaxs erkinining poymol etilishi sinfiy jamiyat uchun xos xususiyatdir. Kishini kishi ekspluatatsiya qila boshlagan qulchilik davridan boshlab jamiyat a'zolari orasida tengsizlik yuzaga keldi. Jamiyat qarama-qarshi sinflarga bo'lindi. Qarama-qarshi sinflar o'rtasidagi keskin kurashlar adabiyotda ham o'z aksini topdi. Xotin qizlarning achinarli qismati, insonning fojiali tagdiri Alisher Navoiyning "Xamsa" tarkibiga kirgan "Layli va Majnun" dostonida yorqin ifoda etildi.

Bu dostonida shaxs erkinining poymol etilishi bosh masala bo'lib, muhabbat mavzusi esa bosh masalani yoritish uchun bir vosita sifatida tasvirlandi. Nizomiyshunos Eli Sultonli yozadi: "Nizomiyni mashg'ul etgan Qaysning fusunkor sevgisi emas, balki bu romantik mojaro orqali hayot falsafasini ko'rsatish edi". [VI.76,75]

Nizomiy Ganjaviy o‘zining “Layli va Majnun” dostoni orqali o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy va sotsial masalarini aks ettirdi, ya’ni erksizlik, zo‘ravonlik, munofiqlik hukm surgan davrning fojiali oqibatlarini ochib berdi.

Davrning achchiq qismati girdobidan chiqa olmay yosh umri sarob bo‘lgan Layli va Majnun o‘limi, yagona o‘g‘lidan tirik judo bo‘lgan, butun umri jabru-jafo bilan o‘tgan Majnun ota-onasining o‘limi feodalizm davrida shaxs erkiga munosabatning yorqin ko‘rinishi ediki, buni shoir Nizomiy va unga izdoshlik qilgan bir qancha shoirlar yuksak mahorat bilan tasvirladilar.

Nizomiy dostonida Majnun erkin muhabbatning fojiasini insonning ixtiyori o‘zida emasligida, ma’naviy huquqsizligida ko‘rdi; Shu bilan birga Majnun o‘z ishqiga ilohiy tus berishdan ham uzoq emas. Majnun onasiga deydi:

Shuncha balo va zorlik bilan yuzaga kelgan ishq,
Bilsang, ixtiyordan (imkondan) tashqaridir. [VI.76,75]

Amir Xusravning “Majnun va Layli” dostonida hayotdan bezgan ota o‘g‘li Majnunga shunday deydi: “Hayotning o‘zining achchig‘i yetarli emasmidi? Sen ham meni qayg‘uga solasan. Bilasanmi, hayotning va’dasi yolg‘on, yashashning ildizi bo‘sh”. [IV.30,146]

Inson haq-huquqining poymol etilishi, falakning jabr sitamlaridan faryod alangasi, ayniqsa, Alisher Navoiy dostonida yana ham kuchliroq, ta’sirchanroq tasvirlanadi. Qo‘l oyoqlari kishanlangan Layli davrning zulmlaridan faryod qilib deydi:

Miskin meni zoru poybasta,
Yo‘q, yo‘qki, zaifi po shikasta.
Ne mayli sukun, ne haddi raftor,
Yuz qaydi balo aro giriftor. [IV.22,149]

Nizomiy dostonida Layli o‘zining telba holatiga tushganini, sarson-sargardonligini shunday tarzda ifoda etadi:

Layli edim, va lekin endi,
Ming Majnundan majnunroqman.

U ovora qora yulduzdin,

Man ming marta ovoraroqman. [IV.22,150]

Amir Xusravning “Layli va Majnun” dostonida esa Laylining azob-uqubatlarda kechgan butun umri qaynab turgan qozonga o‘xshatiladi:

Men miskin bechora va majolsiz,

Qozondek qaynab, kuyganim-kuygan.

Kecha tongacha va tongdan shomgacha, –

G‘am burchagida orom olmayman. [IV.22,150]

Boshqa bir o‘rinda esa Layli kimgadir dardimni aytsam, u tushungandek bo‘lsa-da lekin mendek tushuna olmaydi, deb tashvish chekadi.

Nizomiy va Xusravning bu xil misralarida asar qahramonlarining ichki dunyosi ancha ta’sirli, hayajonli qilib ochib berilgan.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida esa, Layli o‘zining g‘am va tashvishlarini o‘zgalarga aytishdan ham mahrum. Navoiy yaratgan Layli obrazi ham mute, dard-alam bilan to‘lib toshgan, muhtalolarning muhtalosi. U biqiq sharoitning botqog‘idan chiqqan olmay shunday faryod soladi:

Faryodki, o‘lgudek, g‘amim bor,

Tong yo‘q gar o‘zumga motamim bor. [IV.22,96].

Laylining dard-alam bilan to‘la ayanchli ahvoli Nizomiy Ganjaviy va Abdurahmon Jomiy dostonlarida Majnun ota-onasining o‘limidan oldin, Amir Xusrav va Navoiy dostonida otasining vafotidan keyin tasvirlanadi.

O‘tmishda deyarli hamma insonlar, jumladan, xotin-qizlar hayotning achchiqligidan, turmushning mudhishligidan, baxtining qaroligidan azob chekdilar. Ularning faryod-nolalari, dard-alamlari qo‘shiqlarida, she’rlarida izhor etildi. Bu o‘z navbatida, o‘sh davrga qarshi kurashning bir ko‘rinishi ediki, Layli obrazining hayotiy realligi shu asosda yuzaga chiqdi.

Jumladan, xalq qo‘shiqlaridagi:

To‘rt devor ichida,

Sarg‘ayib somon bo‘ldim,

Sevganimga yetolmay,

Yosh turib xazon bo‘ldim. – [VI.77,76].

Kabi misralar Laylining o‘z hayotidan, tagdiridan nolib:

Bug‘doy kibi necha qovriloyin?

Somon kibi necha sovriloyin?

Ham hujrai xilqatim buzuldi

Ham rishtai toqatim uzuldi...[IV.22,214]

kabi tasvirlarning o‘zginasi emasmi? Yoki Abdurahmon Jomiy dostonida Layli yashab turgan muhitidan zorlanib:

Davron chu gulma ba noz parvard,

V-az xori siteza g‘unchae kard – [V.46,172]

Ya’ni “Zamonaning tikanlari erkalab, mehribonlik bilan parvarish qilgan gulimni o‘stirmay, g‘unchaligicha qoldirdi” [VI.77,77] deb g‘am –anduh cheksa, Navoiy dostonida Layli davrning bunday ayanchli qismatidan dod-faryod chekadi:

Kim – “Ey kajrav, sipehri xudroy”

Zulmingdin voyu yuz tuman voy!

Jonimg‘a necha sitam qilursen?

Ko‘nglung‘a nasib alam qilursen.

Bir gulga necha taponcha urmoq

Yaprog‘larini uzub sovurmoq? [IV.22,214].

Fuzuliyning Laylisi falakka murojaat etib deydi:

...Alingdan, ey falak dod!

Sandan bumidi manim murodim,

Davroninga bog‘lu e’tiqodim?

Vaslini tavaqqu’ etdigim yor,

Billoh, bu dagil, yangilma zinhor. [VI.77,78]

Zamonadan faryod Ismoilbek Nokom dostonidagi Layli ovozi ham uchraydi. Keltirilgan misralardan shuni alohida ta’kidlash o‘tish lozimki, ekspluatatsiyaga asoslangan o‘sha zamonning zulmlaridan faryod qilib, ohu nola chekkan Layli obrazining ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari tasvirlangan

ta'sirchan, go'zal misralar, har bir shorning o'ziga xos didi, uslubi, mahoratining o'ziga xos ekanligidan darak beradi.

Feodalizm zulmining ayanchli oqibatlari faqat "Xamsa" asaridagi qahramonlar boshiga emas, balki, umuman, o'sha zamon yoshlari boshiga bitgan balo edi. Qays obrazini olaylik. U, oqil va dono, o'qimishli va zakovatli, shoirtabiat, davrining ilg'or farzandi bo'lishiga qaramay, insonga – Layliga muhabbat qo'yganligi tufayli Majnun – telba deb ataldi, vatanidan, ota-ona bag'ridan ayrilib, makoni dasht-biyobonlar, ulfati hayvonlar bo'ldi. Doston bosh qahramonining bu achchiq tagdiri, ayniqsa, Navoiyning "Layli va Majnun"ida har tomonlama keng va chuqur, haqqoniy va real aks ettirildi.

Demak, "Layli va Majnun" dostonining mualliflari bosh qahramonlar va personajlarning xatti-harakati, ichki kechinmalari, nozik his-hayajonlarini tasvirlash orqali shaxs erkinining qanchalik kamsitilganligini tasvirladilar, o'z davrining ijtimoy-siyosiy va sotsial masalalarining mazmunini ochib berdilar, qabih feodal urf-odatlarini inkor etdilar.

2. “Farhod va Shirin”da do‘stlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat tarannumi.

Ma'lumki, Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi umuminsoniy qadriyatlarning yana biri bu do‘stlikdir. Do‘stlik “Farhod va Shirin”dagi Shopur va Bahrom, “Layli va Majnun”da Navfal, “Sabbai Sayyor”da Farrux va Axiylar obrazlarida bosh masala sifatida talqin etiladi. Navoiy Shopur, Bahromning Farhodga ko‘rsatgan yordam va g‘amxo‘rliklarini faqatgina yakka shaxsga ko‘rsatgan mehribonlik bilan cheklamay, uni xalqlar o‘rtasidagi hamjihatlik, do‘stlik, aloqa darajasigacha ko‘taradi.

Shopur obrazi samimiy do‘stlikning porloq namunasidir. U, o‘zbek xalqining “Do‘sting uchun qon yut” degan hikmatli maqolni o‘zida to‘la aks ettirgan bir yigitdir.

Ma'lumki, adabiyotda eng sodiq do‘stlarning obrazi sifatida Aftondil va Tariellarni bilamiz. Bularning har biri o‘zining shaxsiy baxtiyorligi uchun do‘stining baxtiyorligini muhim deb biladilar. Navoiyning Shopuri ham ana shu tipdagi sodiq va fidokor do‘stning obrazidir, eng qiyin paytlarda do‘sti Farhodga ko‘mak berishni Shopur o‘zining insoniy burchi deb biladi. Chunki:

Vafo vadangga fosh etmoq keraksen,

Degan so‘z boshiga yetmoq keraksen. [IV.22,233]

Shopur Navoiyning eng oliyjanob sifatlarini o‘zida aks ettiradi. Alisher Navoiy bu obraz orqali samimiy insoniy do‘stlik masalasini ochib beradi. Shoir Shopur obrazi orqali haqiqiy do‘st tutingan inson qanday bo‘lishi kerak? Degan savolga Shopurdek beg‘araz, fidoyi, hattoki qo‘rqmas bo‘lishi lozim degan javobni beradi.

Farhod bilan Shopur o‘rtasidagi do‘stlik Farhodni savdogarlar kemasini dengiz qaroqchilaridan mardonavor himoya qilganidan so‘ng boshlanadi. Bu haqda shoir shunday yozadi:

Guzin Farhodg‘a be xavfu kulfat,

Bo‘lub Shopur ila u nav‘i ulfat.

Ki onsiz birdam o‘lg‘och istab oni,

Surub dardu muhabbat dostoni.

Bu yanglig‘ chunki hamdam topti o‘zni

Rafiqu yoru marham topti o‘zni. [IV.24,234]

Kutilmaganda, murakkab bir vaziyatda uchrashgan Farhod va Shopur dastlab o‘zlari to‘la tushunib yetmagan holda bir-birlariga yaqinlashadilar. Ma’lum vaqt o‘tgach, ular o‘rtasidagi dastlabki yaqinlik, samimiy munosabatlar buzilmas do‘stlikka aylanadi. Bu masala ularning o‘z ichki sirlarini bir-birlariga ochishlarida namoyon bo‘ladi. Bu do‘stlikning paydo bo‘lishi va mustahkamlanishida Shopur muhim rol o‘ynaydi. U Farhod bilan do‘stlashgach, unda yashirin katta bir tashvish borligini sezadi.

Alisher Navoiy Shopur obrazida oliyjanob insonlar o‘zlarining do‘stligi uchun tashvish va azoblarga qolib bo‘lsa ham qo‘llaridan kelgancha yordam berishga doimo tayyor ekanliklarini ko‘rsatadi.

“Farhod va Shirin” dostonining yana bir ijobiy va sevimli qahramoni Farhodning do‘sti Bahrom obrazidir. Shoir bu obrazni yaratishda o‘zini qiziqtirgan do‘stlik, haqiqat, adolat kabi bir qator masalalarni o‘rtaga tashlab, uni ijobiy hal etishni ko‘zda tutadi. Bahrom do‘stlikni hamma narsadan yuqori qo‘yadi. U yoshligidan Farhod bilan birga o‘sib, birga o‘qigan, u bilan tug‘ishgan aka-ukalardek samimiy do‘stlashgan. Bahrom Farhoddan uzoq muddat ajrashgach, uni sog‘inib qoladi va tashvishga tushadi. Farhod haqida nohush xabarni eshitgach, u Farhodning otasi – xonga quyidagicha murojaat qiladi.

Agar hukm etsa xon lufu atodin,

Cheriklar jam etib Chinu Xitodin.

Azimat aylabon Mag‘rib zaming‘a,

Yetursam o‘zni Farhodni guzing‘a.

Topilsa, qilsam ul holig‘a tadbir,

Yo‘q ersa, ko‘rkam ulkim bo‘lsa tagdir. [IV.22,326]

Bahromning bu murojaatida uning samimiy do‘sti – Farhodga bo‘lgan cheksiz muhabbati, sadoqati va hurmati ifoda etilgan. U do‘sti yo‘lida har

qanday qiyinchilik, hattoki dahshatlarni bosib o'tishga tayyor.

Bahrom Farhodning arman mamlakatida Xisravning bandida ekani eshitib, son-sanoqsiz qo'shin bilan yetib keladi. Biroq vaqt o'tgan, Farhod, Shirin va Mehinbonu o'lgan edilar. Do'sti va maslakdoshi Farhodning o'limi Bahromga shu qadar qattiq ta'sir qiladiki, butun olam uning ko'ziga qorong'u bo'lib ko'rinadi. U Farhodga motam tutadi va uning qabri ustida "sening har bir tomchi qoning uchun dushmanning daryo-daryo qonlarini oqizaman". [IV.15,38] deya qasamyod qiladi. Eron qo'shini Bahromning haybatidan larzaga tushadi. Bahrom shu paytdan foydalanib, butun urush zararlarini eroniylardan undirib, o'zlarini arman mamlakatidan haydab yuboradi.

Alisher Navoiy "Xamsa"sida tasvirlangan olijanob insonlardan yana biri Navfaldir. Navfal obrazi o'zining sermuruvvatligi, botirligi hamda kishilarga nisbatan mehribonligi bilan diqqatga sazovordir. Uning Majnunga otalarcha mehribonlik qilishi, uni o'z himoyasiga olib, Laylining otasiga qarshi qonli urushlar olib borishi bejiz emas edi. Zar qadrini zargar bilur, degan hikmatli xalq maqoli bor. Navfal ana shu donishmand zargar edikim, balchiqqa tashlagan zarni tanib oldi. Chunki:

Navfal dog'i ishq ko'rgan erdi,

G'am dashti aro yugurgan erdi. [IV.22,394]

Demak, Majnun bilan Navfalning do'stlashishiga ma'lum bir zamin bor. Navfal bilan Majnunning ahvoli bir-biriga hamohang. Shuning uchun ham Majnunning ahvolidan qattiq ta'sirlanib:

Tark ayladi saydg'a jafoni,

Elga dedi: "Tashlang o'qu yoni...". [IV.22,394]

deydi.

Navfalning Majnunga qarata aytgan gaplarida uning insonga bo'lgan samimiy muhabbati, oqil va chuqur mulohazaga ega bo'lgan olijanob kishi ekanligi yaqqol bilinadi. U sevishganlarni baxtli qilish uchun bel bog'lar ekan, Majnun laqabini olgan Qaysni o'ziga farzand, ya'ni kuyov qilish orqali unga yaxshilik qilishni o'ylaydi:

Farzand qilay seni o‘zimga,

Minnatni qo‘yay yorug‘ yuzimga. [IV.22,421].

deb mardlik, oliy himmatlik, muruvvatpeshalik va do‘stlikni oxiriga yetkazadi.

Navoiy Navfal obrazida qator ijobiy fazilat va xususiyatlarni ustalik bilan mujassamlashtirgan. U xususan, o‘zining insoniylik qarashlarini Navfalda singdira olgan bo‘lib, shoir u orqali o‘zining orzu-istaklarini bayon etadi.

Shoirning fikricha, Majnun ishq aro yagona bo‘lsa, Navfal oliy himmatga ega bo‘lishi jihatidan tanhodir.

Navfal obrazidagi eng yaxshi fazilatlardan yana biri uning mansab va nasab quli emasligidir. Agar Laylining otasi Majnun yashaydigan qabila, xususan uning oilasi bilan quad bo‘lishni o‘zi uchun nomunosib, ya’ni haqorat deb bilsa, mansab va davlatdorlikda undan kam bo‘lmagan Navfal bu ishni mamnuniyat bilan qabul qiladi. Majnunni kuyov qilishga tayyor ekanligini bildiradi.

Navfal chuqur andishali inson. Uning bu fazilati, ayniqsa, Majnunning nikoh kechasi Navfal uyidan chiqib ketish epizodida aniq namoyon bo‘ladi. Ammo Navfal Majnunning bu qilmishidan g‘azablanmaydi. Aksincha, u juda vazminlik ko‘rsatib, xijolat chekkanligini bildirmaslikka harakat qiladi.

Darhaqiqat, Navfal Majnun uchun har qanday yaxshilikni darig‘ tutmaydi.

Haqiqiy do‘stlikning oliy namunasi “Sabbai Sayyor” dostonidagi Farrux va Axiy munosabatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning har biri bir hunarni egallagan yohud biror foydali ish bilan shug‘ullanar va do‘stlik, birodarlikni, do‘stga vafo qilishni oliy burch hisoblardilar. Do‘st uchun molini emas, jonini fido qilganlar shular edilar.

Farrux shahzoda bo‘lishiga qaramay, yoshlikdan boshlab ilm o‘rganishga, kasb hunar egallashga qattiq kirishadi. Tez orada barkamol, yetuk kishi bo‘lib yetishadi. Bu haqda Navoiy yozadi:

Lutf ila xulqi haddu g‘oyatsiz,

Fahmu idroki xud nihoyatsiz.

Bori ilmu kamol aro mohir,

Zotidin yuz kamol o‘lub zohir. [IV.22,510]

Bundan tashqari, Farruh o'ta insofli, adolatli, tengi yo'q olijanob yigit. Navoiy bu obrazni yaratar ekan, o'z zamonasidagi amiru amirzodalarni Farruxdek bo'lishlarini juda-juda istagan.

Ana shunday ma'naviy yuksak epizodik obrazlardan yana biri Axiydir. Bu obraz Navoiy "Xamsa"sida o'zining haqiqiy do'stligi, saxiyligi, musofirparvarligi, o'ta rahm-shafqatliligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Axiyning birdan-bir maqsadi, shiori odamlarning og'irini yengil qilish, baxtsizlarga iloji boricha baxt, ochlarga ovqat, yalang'ochlarga kiyim-kechak, joysizlarga joy berish.

Shoir tasviridagi Farrux va Axiylar o'zlarining odamni hayratda qoldiradigan bir xarakterlari bilan diqqatga sazovordir. U ham bo'lsa o'z sevikli yorlarini do'st tutingan kishining baxtli bo'lishini ko'zlab, ya'ni o'z baxtlarini ixtiyoriy ravishda qurbon qilish masalasidir. Axiy butun davlatini do'st yo'liga sarflaydi va xotinini ham singlim deb, do'stiga nikohlab beradi. Biroq buni sezgan Farrux Axiy qashshoqlashib uning oldiga kelganida yuz chandon qilib qaytaradi va xotinini qaytarib, Axiyning o'ziga nikohlab beradi. Bu masala olijanoblikning eng oliy namunasi bo'lib, Navoiy Farrux va Axiy do'stliklarini g'oyatda baland ekanligini bo'rttirib berish maqsadida shunday tasvirlagan.

Shopur, Bahrom, Navfal, Farrux va Axiy obrazlaridagi yana bir fazilat ularning kamtar, eng muhimi nasl va nasab manmanligidan batamom xoli ekanligidir. Ular kimga yaqinlashib, u bilan do'st tutinsalar, uning kimligi, ya'ni millat va e'tiqodi, mansab va boyligidan qat'iy nazar oxirigacha unga sodiq qoladilar.

Mutafakkir o'zining "Farhod va Shirin" asarida markaziy muammolardan biri qilib, suv muammosini ya'ni ariq-kanal qazdirib suv chiqarish va bog'u rog'lar qurib, mamlakatni obodonlashtirish kabi muammolarni ko'tarib chiqdi.

Navoiy Hirot bilan Mashhad o'rtasida uzunligi yetmish kilometr bo'lgan ariq qazdiradi. "Makorim ul-axloq"da 14 hovuz haqida yozgan, 380ga yaqin bino va inshoot qurdiradi, 5 madrasa: Ixlosiya, Xalosiya, Shifoia, Nizomiya, Xusraviya [V.69,68].

Navoiyning fikricha, jahonda umumiy bir yaxlitlik bor, har bir qurt qumursqaning ham o'z o'zini, vazifasi bor, ular insonga xizmat qiladilar.

Bizning fikrimizcha, inson tabiati ta'siri hamisha ongli, maqsadga muvofiq, oqilona bo'lishi kerak. Agar buning aksiga bo'lgan bo'lsa, tabiat insondan juda qattiq o'ch olishi, qo'lga kiritgan barcha yutuqlarini yer bilan yakson qilib yuborishi hech gap emas. Bunga insoniyat tarixining o'zi guvoh. Navoiy "Sabbai Sayyor" bu muammoni quyidagicha tasvirlaydi: "Bahrom...ovga berilib, hayvonlarni qirib tashladi". [IV.29,374]

Navoiy fikricha, inson yaratilishidan avval tabiatda monandlik bor, agarda shu monandlikni inson buzsa, Bahrom va uning hamrohlari fojiasiga sherik bo'ladi

Haqiqatdan ham, tabiatga noto'g'ri munosabatda bo'lish, uning qonuniyatlarini e'tiborga olmasdan turib ish tutish kutilmagan natijalarga olib keladi. Hatto shoh Bahrom voqeasidek, baxtsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin.

"Layli va Majnun"da bu muammoni Navoiy o'zgacharoq hal etadi. "Qays, ohular galasini qirayotgan Navfalni bundan qaytaradi. "Haq bularga ham jon berib, hayotning go'zal nishonalarini beradi. Endi hurkek ojizlarning jonidan kech, bu begunoh Galaning qonini to'kma. –Bu so'zlarning halovatini bildim, ularga bo'lgan adovatni tark qildim" deb Navfal xatosiga iqror bo'ladi [IV.30,130].

Qaysning Navfalga murojaati aslida Navoiyning barcha insoniyatga qarata aytgan da'vatidir. Uningcha, ovga qiziqib, himoyasiz bechora hayvonlarni qirish insonga nomunosib ishdir. Ularga qirg'in keltirayotgan ayrim shafqatsiz, toshbag'ir kishilarni ko'rganimizda ularni bu yo'ldan qaytarmog'imiz kerak. Ayniqsa, bugungi kunda Hayvonot olamining ba'zi bir turlari kamayib ketayotganligi va ayrim noyob jonivorlar turining umuman yo'q bo'lib ketishi xavfi munosabati bilan chora-tadbirlarni qo'llamoq zaruriydir. Zero, tabiatni muhofaza qilish barcha insoniyat oldida turgan eng muhim va dolzarb umumbashariy muammolardan biridir. Chunki tabiatni muhofaza qilish

insoniyatning ertanggi kuni haqida g'amxo'rlik qilishdir.

“Layli va Majnun”da:

Insonki erur charog'i binish,

Bas chashmu charog'i ofarinish. [IV.30,156]

Bu o'rinda Navoiy barcha insonlarni ikki muhim muammoga e'tibor berishini uqtiradi. Birinchidan, barchani hayvonot olamini asrashga va o'rinli paytlarda ularni himoya qilishga da'vat etadi. Ikkinchidan esa, ba'zi bir yaramas insonlar borki, ular bilan birodar tutinmoqlikdan ko'ra hayvon bilan do'stlashgan afzal mazmunidagi fikrni izhor etadi.

Navoiyning “Sabbai Sayyor” asarida keltirgan “tabiatning fe'li buzilganda, charxda to's-to'palon, zulm hukm suradi” degan g'oyasi naqadar o'rinli va haqqoniy ekanligiga barchamiz guvohdirmiz. [IV.29,384]

Bugungi kunda, ilmiy-texnika taraqqiyotini idrok etuvchi ongli shaxs- inson o'zining kuch-qudratiga yuqori baho berib yubordi. Inson “Tabiatni bo'ysundiramiz” degan asosiy shiorlarni o'rta tashlab, tabiatga ko'r-ko'rona hujum qila boshladilar. Tabiatdan foyda olishni maqsad qilib qo'ydilar, olgan narsalarini o'rnini to'ldirishni o'ylamadilar. Oqibatda ona tabiatga nisbatan loqaydlik, befarqlik nomoyon bo'ladi. Qadimda ota-bobolarimiz ardoqlagan qadriyatlar, shuningdek, yer, suv, havo, o'simliklar va hayvonlarga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari yo'qolib keta boshladi. Endilikda ana shu qadimiy qadriyatlarimizni tiklash bilan ovora bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni o'z boshimizdan kechirmoqdamiz.

Mutafakkir uchun boylikning asosiy belgilari umuminsoniy va inson qadri bilan bog'liq ishlarni amalda qo'llanilishi bilan o'lchanadi. Shu nuqtai nazardan Navoiy atrof-muhitni muhofaza qilish va eng avvalo insonni himoya qilish sifatida umumiy qadriyatlarni yoqlab chiqadi.

Navoiy falsafiy qarashlarining inson aql chirog'i, qolaversa, butun koinot ko'zining nuridan iborat, deb qaraydi. U atrof –muhitni muhofaza qilish masalasida birinchi o'rinda insonni nazarda tutadi va insonning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish shart va zarur degan masalalarni qo'yadi.

Navoiy falsafiy qarashlarining kelib chiqishidagi yana bir muhim xulosa shundan iboratki, inson yaratilishidan avval tabiatda monandlik, ya'ni umumiy bir yaxlitlik bor, u o'z navbatida umumiylik, xususiylik va yagonalikning dialektik o'zaro bog'lanish nuqtai-nazariga asoslanadi bu birinchidan.

Ikkinchidan, insonning tabiatni o'zgartirish va unga ta'sir imkoniyatlari cheksiz, lekin tabiatning inson talablarini qondirish imkoniyatlari cheklangandir.

Uchinchidan, yerning tirik mavjudot tarqalgan qismida va uning tarkibiy qismlarida tadrijiy rivojlanish davomida ma'lum me'yor tarkib topgan. Me'yor tushunchasi miqdor bilan sifat birligini bildiradi. Har bir narsaning miqdor birligini chegarasi uning sifat jihatiga bog'liq. Shu nuqtai-nazarga asoslansak, Navoiy dunyoqarashidan inson o'z faoliyati davomida tabiatga ta'sir mana shu me'yorga rioya qilishi va uni saqlashi kerak va shartdir, degan g'oya kelib chiqadi. Mutaфakkirning bu g'oyasi "Hayrat ul-abror"da o'z ifodasini topgan. Bu asarning, Navoiy barcha hukmdorlar uchun ibratli voqeani hikoya qiladi. Ovga chiqib, dehqonning xaroba kulbasiga mehmon bo'lgan podsho Bahrom bu xarobalikning sababini so'raganida, dehqon shunday javob beradi:

Dedi: burun yaxshi edi holimiz,

Zulm xarob ayladi ahvolimiz. [IV.31,315]

Dehqonning qalb so'zlari Bahromning ko'zini ochadi, u aysh-ishratdan voz kechib, adolat bilan mamlakat ishlarini boshqaradi. U qishloq obod va bog'u bo'ston holiga keladi.

Navoiy fikricha, tabiiy muhitni muhofaza etishni paysalga solib bo'lmaydi. Uningcha, inson faqat tashqi muhitga ta'sir etuvchi shaxsgina emas, balki uni qayta o'zgartiruvchi egasi hamdir. Mehnat jamiyatni asosan tabiatni inson tomonidan o'zgartirishga qaratilgandir, tabiiy borliqni o'z insoniy ehtiyojlarini qondirishga moslaydi, tabiat doimo o'zgarishlarga uchraydi.

Demak, atrofimizni muhofaza qilish deganda butun insoniyat manfaatini ko'zlab, tabiatdan oqilona foydalanish, uni saqlash, qo'riqlash, insonni asrash va uning salomatligini saqlash tushuniladi.

Navoiy ulug' siymodir, u umuminsoniy qadriyatlarimizni tiklashda buyuk

ko‘makdosh va maslahatchidir. Uning atrof-muhitni muhofaza qilish xususidagi ta’limoti Markaziy Osiyo sharoitida o‘ziga xos ma’naviy hodisa bo‘lib, xalqlarimiz ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida muhim mavqega egadir.

Navoiy dunyoqarashida ekologiya muammosining falsafiy mazmuni insonparvarlik ruhida bo‘lib, unda xalqni suv bilan ta’minlash, bog‘lar barpo etish va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish; xalq ehtiyojini qondirish uchun zarur binolarni ko‘plab qurish; hayvonot olamini asrash, insonni aziz tutish va uni qadrlash singari fazilatlar ulug‘lanadi.

Navoiy merosida umumbashariy qadriyatlar mavhum holda emas, balki o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan milliy-madaniy qadriyatlar bilan uzviy aloqada va chambarchas birlikda bo‘lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivojiga muhim hissa qo‘shgan.

Alisher Navoiyning “Xamsa”si jahon adabiyoti xazinasining qimmatli boyliklaridan biridir. Dostonda qo‘yilgan eng muhim masalalardan biri halol mehnat masalasidir.

Navoiy umr bo‘yi xalq uchun, xalq manfaatlari yo‘lida ijod etdi. U halol mehnat qilishni kishining olijanob fazilatlaridan biri deb bilib, kishilarni mehnat qilishga, mehnatni puxta va o‘z vaqtida bajarishga undadi:

Aylar ishingga chu bo‘lur rast ros

Vaqtidin o‘tkazma oni bir nafas. [IV.22,138]

Navoiy qilingan mehnatning unumli, foydali bo‘lishida kasb-hunarning roliga katta ahamiyat berdi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq,

Jaxondin notamom o‘tmak biaynix,

Erur hammomdin nopak chiqmoq. [IV.22,480]

Shoir kishilik hayotida mehnatning roliga yuqori baxo berib “yuk chekmoq ila kishiga zebolik erur” deydi. Bu bilan u, mehnat kishini kamolotga yetkazadi, bezaydi degan fikrga bayon etadi.

Mehnatni mana shunday yuqori baxolagan shoir halol mehnat bilan mashg‘ul

bo‘luvchilarni himoya qildi. Mehnat qilmay, mehnatkash xalq hisobiga yashovchi tekinxo‘r tabaqalarni keskin qoraladi, zolim shoh sotqin shayx-eshon, poraxo‘r qozi, beklarni va shularga o‘xshash parazitlarni ayamay fosh qildi. Masalan, dostonida zolim shohlarning hashamatli saroylari, bu saroylarda bo‘layotgan aysh-ishrat, kayfu safolar mamlakatni, mehnatkash xalqni xonavayron qilish hisobiga bo‘layotganligini quyidagicha real bo‘yoqlarda ochib tashlaydi.

Eyki, qaviy ayladi davlat qo‘ling,
Zulm sori tushti va lekin yo‘ling.
Zulming emas erdi xaloyiqqa kam,
Kim qiladursen ani o‘zingga ham.
Zulm o‘zingga fisqdur, ey hushyor,
Gum qil ani, bo‘lsa sanga hush yor.
Chunki farah bazmig‘a azm aylading,
Ayshu tarab azmig‘a bazm aylading. [IV.22,60]

Navoiy zolim shohlarnigina fosh etib qolmadi, balki shoh atrofini o‘rab olgan munofiq shaxslarni ham keskin qoraladi.

Navoiy johil, mayxo‘r, poraxo‘r va badxulq qozilarni tanqid qilib “omiy qoziki may ichkay, o‘lturgulukdir va do‘zax o‘tig‘a yetmasdin burun kuydurgulukdir” deydi. [VI.78,48]

Xuddi shuningdek, u “bir diram uchun yuz nohaqni haq etuvchi va oz karam uchun ko‘p “lo” (yo‘q)ni “na‘m” (ha) bitkuvchi; bir savat uchun bir bog‘ni kuydirmakdin g‘ami yo‘q va bir botmon bug‘day uchun bir xirmonni alami yo‘q” muftilarni “hiyla bila fatvo tuzuvchi”, “qalam shuki bilan shariat yuzini buzuvchi”, “dinni dunyoga sotuvchi” kishilar deb ayblaydi va o‘z foydasiga qarab fatvoda “ha” yo “yo‘q” bitg‘uvchi kishining qo‘lini kesib tashlamoq kerak deb hukm chiqaradi.

Navoiy olib sotarlar haqida ham tamomila salbiy fikrda bo‘lgan, chunki ular arzon narsani qimmat sotib xalqni talaganlar. Xullas, Navoiy xalq hisobiga yashab, boylik to‘plovchi hukmron tabaqalarni qoraladi.

Alisher Navoiy mehnat va mehnat qiluvchilar qadrsizlangan, mehnatga nafrat bilan qaralgan jamiyatda yashadi. Shuning uchun ham u o'zi yashagan davr haqida mana nimalar deydi:

Kim ko'rdi ekin jahonda oyo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq.
Yuz yilda agar bir bo'lsa paydo xushluq,
Omadadir yonida yuz noxushluq. [IV.22,491]

Navoiy tekinxo'r hukmron tabaqalarni fosh qilib, o'zi yashagan davrni inkor etdi. Mehnat va mehnat ahlini qadrllovchi jamiyat bo'lishini orzu qiladi.

Lekin Navoiy xalq turmushini yaxshilash, ajoyib mehnat mo'jizalarini yaratish uchun feodal jamiyat tuzumini yemirish lozimligini tushunmadi, tushuna olmas ham edi.

Shuning uchun ham Navoiy asarlarida ajoyib mehnatsevar qahramonlar obrazini, xalq mehnatini qadrllovchi, adolatli shoh va shahzodalar obrazini yaratdi. Hukmron tabaqalarni halol mehnat qiluvchi mehnatkash xalqning qadriga yetishga, ularning mehnatini tagdirlashga chaqirdi. Buning uchun eng avval, mana shu yuqori tabaqa vakillarining o'zlari zulm, zo'rlikdan qaytishi, adolat bilan ish ko'rishi, halol mehnat qiluvchi xalqqa yordam beruvchi kishilar bo'lishi kerak deb tushundi. Shunga ko'ra Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining markaziy masalalaridan biri qilib, mehnat va ijodkorlik masalasini qo'ydi, mehnatda qahramonlik ko'rsatib, dong chiqargan shahzoda Farhod obrazini yaratdi.

Farhod mehnatsevar va ijodkor komil inson obrazidir. U og'ir mehnat bilan mashg'ul bo'layotganlarga yordam berishni o'zining burchi deb biladi. Navoiy u bilan o'sha davrdagi taxt-tojparast, ilm-hunardan xabari yo'q, o'zboshimcha, mehnat qilishni o'ziga or biluvchi shahzodalarga tanbeh beradi. Ularni Farhoddan o'rnak olishga undaydi.

Farhodning mehnat faoliyati va qobiliyati ayniqsa, hovuz qazish va kanal ochish ishlarida kamol topadi. Demak, mehnat va ijodkorlik "Farhod va Shirin"ning markaziy masalaridan biridir. Navoiy dostonini ikkinchi bir nom

bilan “Mehnatnoma”, deb ham atagan edi.

Zaruratkim, solib bir o‘zgacha tarh,

Bu “Mehnatnoma”ni qilg‘um durur sharh. [IV.18,45]

Navoiyning Farhod obrazini shahzoda qilib berishdan ko‘zlagan maqsadi ham shu edi. Uningcha, mehnat baxtli hayot manbaidir. Jamiyatning boyligi ham mehnatdandir. Mehnatni va mehnat ahllarini samimiyat bilan qadrlagan Navoiy dehqonlarga jamiyatning asosiy moddiy boyliklarini yaratuvchi kuch deb qaraydi. Navoiy dehqonlarni, o‘z mehnati bilan o‘ziga ham, o‘zgalarga ham foyda yetkazuvchi tabaqa sifatida ta’riflaydi. Ularning mehnatsevarligi halolligi va to‘g‘riligini maqtaydi.

Buyuk xalqparvar shoir mana shu mehnatkash xalq mehnatining tagdirlanishi va qadrlanishini istadi, shuni orzu qildi. Lekin u mehnatkash xalq ahvolini yaxshilashni yuqori tabaqa vakillarining faoliyatiga bog‘liq deb bildi, shuning uchun ham Navoiy shoh va uning amir-amaldorlarini adolatli bo‘lishga chaqirdi. Bu jihatdan quyidagi hikoya ahamiyatlidir:

Jo‘na degan juda odil va insofli shoh bo‘lgan. Bu shoh saxiyligi bilan nom chiqargan. Bir kuni dehqon podshohga bir savat nok tuhfa qiladi. Sovg‘a evaziga shoh dehqonga hech narsa bermaydi. Bir necha kundan keyin shohning yodiga qilgan xatosi keladi va u o‘zini noqulay sezadi. Shoh o‘sha dehqonni chaqirtirib kelib, nonning evaziga nima berishi lozimligini aytadi. Dehqon shohdan bir bolta va bir arra talab etadi. Shoh dehqonning undan ranjiganini va o‘sha nok daraxtini kesib tashlash niyatida ekanligini fahmlaydi. Shoh vaziriga nok keltirilgan savatda to‘latib dehqonga oltin berishni buyuradi. Vazirlar shunday katta mablag‘ni dehqonga berib yuborishni ep ko‘rmaydilar. Buni fahmlagan shoh dehqonga oltinni ikki barobar ortiq berishni buyuradi.

Hikoyada mehnatkash xalq mehnati qadrlanishi va tagdirlanishi kerak, degan g‘oya olg‘a suriladi. Bunda adolatli, oliyhimmat, saxiy shohgina mehnatning qadriga yetishi mumkin, degan fikr ifodalanadi.

Navoiyning feodal va o‘rta asr sharoitida, mehnatni va mehnat ahllarini ulug‘lashi katta ijobiy ahamiyatga ega edi. Shoirning mehnat haqidagi ilg‘or

g'oyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Mehnat qilish shon-sharaf ishiga aylangan bizning jamiyatimizdagina mehnat va mehnat ahli yuksak qadr-qimmatga ega bo'ldi, hurmatga sazovor bo'ldi.

3. “Hayrat ul-abror”da axloqiy qadriyatlar: hayo, vafo, saxovat.

“Hayrat ul-abror” dostonining oltinchi maqoloti bevosita adab, tavozu’ va hayo haqida. Unda, shoir, jumladan, xalq uchun mansab emas, aynan hayo bilan adab sharaf ekanini yozadi:

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab. [IV.31,155]

Keyingi baytda shoir hayoni yog‘in manba’iga o‘hshatadiki, bu yomg‘irning har tomchisi tuproqni kimyo qiladi, ya’ni undan oltin undiradi:

Chunki yog‘in manbai o‘ldi hayo,
Qatrası tuprog‘ni qilur kimyo. [IV.31,155]

Navoiy hayoni deyarli har gal adab bilan yonma-yon qo‘llaydi:

Muncha mazallat borisi bul’ajab,
Daf’ bo‘lur kelsa hayovu adab. [IV.31,157]

Mana bu baytda ham shunday:

Vaz’i tavoze’da vafo aylamak,
Da’bi adab birla hayo aylamak. [IV.31,163]

Shu bobdan keyingisida, dostondagi qat’iy tartibga ko‘ra, hikoyat keltirilishi zarur. Bu hikoyat: “No‘shiravonning hayo bog‘ida nargis ko‘zidin ko‘zining nargisi uyolib, nargis gulruhidin kanor istamay, kanora istagoni” deb nomlanadi.

No‘shirvon hali yosh paytida bir qizni sevib koladi. Hech kimi yo‘q bir chamanzorda hilvat topib, u bilan suhbat quradi:

Bir chaman ichra tuzubon xilvate,
Gulrux ila qildi ayon suhbate. [IV.31,163]

Shoh gulzor yori sari mayl qilib, uni bag‘riga olmoq uchun ko‘l cho‘zadi. Qiz ham bunga moyil bo‘ladi. Ammo birdan shoh shashtidan kaytadi. Ho‘sh, nega? Chunki:

Sung‘och ilik dilbare munis sori,
Tushti ko‘zi bir buta nargis sori. [IV.31,164]

Ana holos! Shoh qizga qo‘l cho‘zganda ko‘zi ularga odamning ko‘zidek boqib turgan gulga - nargisga tushadi. Qiz yigitdagi bu o‘zgarishdan hayron

bo‘lib undan:

deb avval qo‘l cho‘zib, keyin tortib olmoqning sababini so‘raydi. Shoh, esa:

Kim bu ne qo‘l sunmog‘u chekmak edi?-

Kim bu visol ichraki voqe‘ durur,

Nargisi shahlo ko‘zi mone‘ durur. [IV.31,164]

deb javob beradi.

Demak, visol chog‘i agar birgina nargis guli qarab turgan bo‘lsa ham, oshiqu ma’shuq undan uyalishi kerak ekan.

Anushervon o‘sha nargisning shahlo ko‘zidan uyalish darajasida hayoli bo‘lgani uchun butun olamga podshohu uning odilligi yer yuziga panoh bo‘ldi:

Jumlayi olam aro shoh ayladi,

Adlini olamg‘a panoh ayladi. [IV.31,164]

Endi shoir ana shu qissadan hissa chiqaradi:

Aysh, Navoiy, necha dilkash durur,

Lek adab birla hayo xush durur. [IV.31,164]

Demak, ayshu ishrat har qancha ko‘ngiltortar bo‘lsa ham, inson uchun adab bilan hayo bundan ham yaxshiroq fazilat hisoblanadi.

“Farhod va Shirin”da hayo bilan bog‘liq yana bir ajoyib voqea bor. Farhod tongda Shiringa boqib, uning o‘sha oyinada ko‘rgani qiz ekanini bilib, hushdan ketib koladi. Uni kajavaga solib, Mehinbonuning saroyiga olib kelishadi. Ikki kecha-kunduz hushiga kelmaydi. Uchinchi kecha o‘ziga kelib, qarasa, saroyda yotibdi. Nima bo‘lganini eslaydi. Yuz bergan voqeadan qattiq uyaladi. Navoiyning tasviricha, terga botib ketadi:

Hayodin terga bo‘ldi abrdek g‘arq,

Ul uydin chiqti sekrib o‘ylakim barq. [IV.30,117]

Hech kimga bildirmay, saroydan uchib chiqadi-da, yana toqqa borib, ariq qazishda davom etaveradi:

Etib oriqqa ko‘p aylab takupu,

Hayo teridin andoq oqizib su(v). [IV.30,117]

Xullas, ota-bobolarimiz, qadim ajdodlarimiz sharmu hayoni shu qadar

e'zozlaganki, hilvattalab ishlarga, hatto, gulning ham ko'zi tushmasin, deb qaragan.

“Hayrat ul-abror”ning vafo haqidagi bobi ham har bir insonni tamom hayratga soladi. Darhaqiqat, insoniy fazilatlarining biri vafodir, shuning uchun Navoiy bu fazilatni eng qimmatli gavharlardan ham noyob va qimmatliroq deb hisoblaydi:

Harne javohirki, hayol aylagay,
Javhariyi aqlu savol aylagay,
So'rsa otin ahli safo javhari,
Oh chekib deki, vafo gavhari. [IV.31,177]

Modomiki, “vafo gavhari” bu qadar noyob va bu qadar bebaho ekan, bas, u holda bevafolarni nima deb anglash kerak?

Yorki, oyini vafo yo'q anga,
Sham' kibidurki, ziyo yo'q anga.
Sham'ki yo'q anda ziyo to'shasi,
O'tsiz erur o'ylaki muz, sho'shasi. [IV.31,180]

Vafolik yor topish sharafiga erishgan bir gado, Navoiyning fikricha jahon shohlaridan baxtiyordir:

Jumla jahon shahlig'idin ori bor,
Kimki gadodur dog'i bir yori bor. [IV.31,181]

Navoiy, vafoning foydasini va sharofatini ko'rsatish uchun, mudhish bir voqeani hikoya qiladi, bu shundan iborat:

Amir Temur ko'p mamlakatlarni fath qilgandan keyin, o'z jahongirlikini davom ettirib, Hindiston ustiga qo'shin tortadi. Hind xalqi har qancha qahramonlik bilan o'z vatanini himoya qilsa ham, Temur qo'shinining dahshatli hujumiga tob keltira olmay, oxirida taslim bo'ladi. Biroq, Temur hind xalqini gonohkor sanab, hammani baravar, o'ldirishga farmon beradi. Askarlar yosh-qari, xotin-bolalarni bir boshdan qilichdan o'tkaza boshlaydilar. To'satdan bir yigit xotini bilan qo'lga tushadi. Askarlar yigitni o'ldiramiz deb qilich ko'targanda, xotini, meni o'ldiringlar deb, o'z bo'yinini qilichga tutadi. Aksincha, xotinning boshini

kesamiz deb qilich ko'targanlarida, yigit faryod qilib, uni qo'yib, meni o'ldiringlar deb, bo'ynini qilichga tutadi.

Navoiy tili bilan aytganda:

Bazl qilurlar edi bir-birga bosh,

Boshlarig'a tig' uchun erdi talosh. [IV.31,187]

Bu holdan taajjublangan askarlar, voqeani Temurga aytadilar. Bunday mislsiz vafodorlik Temurning qalbiga ta'sir etib, ham ularni, ham hind xalqini afv qiladi. Bu hikoyadan chiqadigan xulosa ravshan:

Navoiy oilaning mustahkam bo'lishini orzu qilar edi. Chunki oilaning mustahkamligi jamiyatning mustahkamligiga dalolat qiladi. Inqirozga yuz tutgan jamiyatlar, yolg'iz iqtisod va siyosatda emas, balki oilaviy jihatdan ham chirib yemiriladilar. Unday oilalarda er bilan xotin, ota bilan o'g'il orasida samimiyat, shafqat va fidokorlik bo'lishi mumkin emas. Oila jamiyatning poydevori vazifasini bajaradi. Navoiy shu poydevorni mustahkamlab, o'zi yashayotgan jamiyatni tuzatmoqchi bo'ldi.

Navoiy orzu qilgan mustahkam oilaviy turmush va fidokorlik bizning jamiyatimiz kabi sog'lom va bardam jamiyatdagina bo'lishi mumkin.

Saxovat "karam", "futuvvat", "himmat" tushunchalari bilan ma'nodosh.

"Hayrat ul-abror" dostonida "karam" haqida bir bob ajratilib, keyin yana bulut kabi "naf'rasonlar" to'g'risida bir alohida bob bag'ishlangan. Shoir karam haqida ko'proq saxovatning qoidalari, tuhfa va in'omlarga kim munosib, degan mavzu ustida to'xtalgan bo'lsa, keyingi bobda javonmardlik rusumidan kelib chiqib fikr bildiradi.

Karam-Allohning sifatlaridan, shu bois karamli bo'lish, tuhfa, tortiqlar bilan odamlarni xushnud qilish, bu insonlik sharafiga. Ammo, deydi Navoiy, saxovat har qancha sharaflilik sifat bo'lmasin, lekin haddan oshsa, isrofgarchilikdir.

Saxovat o'z joyida, muhtoj–mustahiq odamga qilinishi kerak. G'arib va benavo, beva–bechora, yetimlar, qarovsiz qolgan qariyalar, tolibi ilm bo'lganlar, xullas, faqiru haqir odamlarga mol berish o'rniga, "mubohat va manmanlik" yuzasidan hovuch-hovuch dur sochish bema'nilik va tentaklikdir. Undan ko'ra

baxil bo‘lgan yaxshi.

Ot onga tortarki, yuz ilqisi bor,

Sim anga berurki, yuz ilg‘isi bor. [IV.31,146]

Bunday “tuhfa” saxovat shartiga kirmaydi, balki u ta’maning boshqa bir turi, ya’ni boyga marhamat ko‘rsatib undan kattaroq tuhfa olish ilinji, xolos.

Saxovatning ikkinchi sharti shuki, tamagirlar, shilqim talonchilar, dunyo to‘plash hirsiga tushganlar ham karam qilishga loyiq emaslar.

Shu kabi talonchilik, aldamchilik, firibgarchilik bilan yig‘ilgan mol-dunyodan sadaqa va tuhfa qilish nojoiz. Shunday odamlar ham borki, mashaqqat bilan, yuz qayg‘u ila oyu yillab narsa yig‘adilaru, so‘ngra uni behuda joylarga sarflaydilar, bu xuddi yuz azob bilan quduq qazib, uning tuprog‘ini berkitish uchun yana bir quduq qazigandek gap. Saxovat madrasa, machitlar qurish, vayrona joylarni obod qilish, umuman Xudo yo‘liga ish qilishdir.

“Saxobdek naf’rasonlar” bobida Navoiy endi saxiylikning haqiqiy namunasini ko‘rsatuvchi kishilar haqida yozadi. “Naf’rasonliq” – bu faqat moddiy yordam emas, balki ma’naviy madad berish, yaxshi so‘z, nasihat bilan yomon yo‘lga kirgan kishini yaxshi yo‘lga boshlash, ta’lim-tahsilga kuch sarflab, xushxulq, odobli shogirdlar tarbiyalash hamdir. Qalblarga ishqu muhabbat, ezgulik urug‘ini sepish ham saxovatga kiradi. Ba’zan bir yaxshi so‘z yuz ganjdan foydaliroq:

Ganj berib bo‘lmas ekin tutsa ko‘z,

Ulcha qilur vaqtida bir yaxshi so‘z. [IV.31,238]

Saxovat-muruvvatning, shafqatning nishonasi. Saxiy odam kerilish uchun, minnat uchun bu ishni qilmaydi. Uning tabiati, ko‘ngli shunga moyil bo‘lgani uchun shunday yo‘l tutadi. Shuning uchun saxovat talab qilinmasdan amalga oshirilishi va ketidan minnat qilinmasligi lozim. Navoiyning mashhur fardi:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,

Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo‘q.

Ya’ni: saxovat faqat mol-mulk oshib-toshib yotganda, birovga himmat qilish emas, balki, borini baham ko‘rish. Ming qo‘yli boyning bir qo‘yini kambag‘alga

ato etishdan ko'ra, sufradagi bitta nonini boshqalar bilan bo'lishib yegan darvesh saxiyoq. Chunki boy savob tama'ida in'om etgan bo'lsa, darvesh butun vujudi bilan saxiy bo'lgani uchun shunday qiladi. Bundaylarni Navoiy "saxiyi jibilliy", ya'ni asl zotida saxovati bor kishilar, odamiylar odamiysi deb ataydi:

Oni bashar xaylining insoni bil,

Odamiylar odamiysi oni bil. [IV.31,242]

Bunday zotlar futuvvat ahlidirlar, ular tasavvufni o'z hayotlarining mazmuniga aylantirgan, ya'ni tasavvuf g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchilar edilar. Ularning har biri hunarni egallagan yoxud biror foydali ish bilan shug'ullanar va do'stlik, birodarlikni, do'stga vafo qilishni oliy burch hisoblardi. Do'st uchun molini emas, jonini fido qilganlar shular edilar. Navoiy buni "Sabbai sayyor" dostonidagi Axiy obrazida bag'oyat jonli va ta'sirli qilib tasvirlagan. Axiy butun davlatini do'st yo'liga sarflaydi va xotinini ham singlim deb, do'stiga nikohlab beradi. Biroq buni sezgan Farrux Axiy qashshoqlashib uning oldiga kelganida yuz chandon qilib qaytaradi va xotinini qaytarib, Axiyning o'ziga nikohlab beradi.

Navoiyning "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" nomli asarlarida komil insonlarning asosiy sifatleri keng talqin etilgan. Bu mardlik, jasorat va fidoyilik axloqidir. Eng oliy himmat ham, deydi Navoiy, o'zlikdan kechib, o'zgalarga rohat bag'ishlash, hayotning davomiyligiga ko'mak berishdir. Buning misoli yerga qadalgan urug'ki, o'zi yo'q bo'ladi, ammo undan gul –chechaklar, daraxtlar unib chiqadi. Yoki ipak qurtini oling. U sur'at bilan mehnat qilib, o'zidan voz kechadi va ipakka aylanadi:

Lola tuxmicha rag'bating yo'qmu,

Ipak qurtichalik himmating yo'qmu?- [VI.71,36]

deb savol beradi shoir inson zotiga. Bu yerda haq yo'lida nafsidan kechib, yangi ezgu sifatlar kasb etgan odam ham nazarda tutilgan, albatta. Zero, rag'bat-bu ishq, harakat va faoliyat demak. Olam o'zaro intilishlar, evrilish-o'zgarishlar, takomillashishlardan iborat ekan, inson bolasi ham hamisha takomillikka intilishi, buning uchun ranju mashaqqat cheksa ham chidashi kerak. Odam bir

sifatdan kechib, ikkinchi sifatga o'tishi, ya'ni hayvoniy sifatlardan kechib, ilohiy sifatlarni kasb etishi mumkin. Shunda odamdan yangi odam vujudga keladi- "odamiylar odamiysi" paydo bo'ladi. Navoiyning kuyinishlari, oliy maqsadi ana shu.

Voqean, Alisher Navoiyning o'zi ulug' saxovatpesha inson bo'lganini bilamiz. O'nlab olimu shoirlar, san'atkorlarga homiylik qilgan, yuzlab kishilarga moddiy yordam bergan, qanchadan-qancha noyob asarlarning dunyoga kelishida ilhom va kuch bag'ishlagan, iste'dod sohiblarini qanoti ostiga olib, tarbiyalagan. Navoiy yana ko'plab madrasalar, maqbaralar, hammom va tegirmonlar, bog'lar barpo etgan. Umrining oxirida esa qolgan barcha mulkini ma'rifat maskanlariga vaqf qilib qoldirishni vasiyat etdi. Saxovat shuncha bo'lar, himmat shu qadardir axir! U o'z g'oyalarini o'zi hayotga tatbiq etib, tarixda eng ulug' homiy nomini oldi.

III bob bo'yicha xulosa.

“Xamsa”da ijtimoiy adolat, tenglik va shaxs erki masalasi ham alohida yuksak pafos bilan kuylanadi. Buni u odil shoh obrazi orqali berishga intiladi. “Xamsa”da Navoiyning adolat g‘oyasi faqatgina shohlarga nisbatan emas, balki butun jamiyatning ma’naviy va siyosiy holatlariga nisbatan ham berilgan bahodan iborat umumiy qadriyatlar sifatida ifodalanadi. Navoiy ijtimoiy tenglikni targ‘ib etar ekan, yer yuzidagi xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash masalasiga katta ahamiyat beradi, urushga qarshi turib, shaxs erki daxlsizligini uqtiradi.

“Xamsa”da do‘stlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat ham o‘ziga xos tarzda tarannum etiladi. Haqiqiy do‘stlikning oliy namunalari Shopur, Bahrom(Farhodning do‘sti), Navfal, Farrux va Axiy kabi timsollarda namoyon bo‘ladi. Bu timsollar kamtar, eng muhimi nasl va nasab manmanligidan batamom xoli ekanligi bilan ajralib turadilar hamda kimga yaqinlashib, u bilan do‘st tutinsalar, uning kimligi, ya’ni millat va e’tiqodi, mansab va boyligidan qat’iy nazar oxirigacha unga sodiq qolishlari bilan o‘quvchi kitobxonga namuna ko‘rsatadilar. Navoiy atrof-muhitni muhofaza qilishga chaqirar ekan, inson yaratilishidan avval tabiatda monandlik borligini, agarda shu monandlikni buzsa, Bahrom va uning hamrohlari fojiasiga sherik bo‘lishiga “Sabbai sayyor” dostoni orqali ishora qiladi. Navoiy halol mehnat qilishni kishining olijanob fazilatlaridan biri deb bilib, “Xamsa”da kishilarni mehnat qilishga, mehnatni puxta va o‘z vaqtida bajarishga undaydi, kishilik hayotida mehnatning roliga yuqori baho berib, “yuk chekmoq ila kishiga zebolik erur” derkan, mehnat kishini kamolotga yetkazadi, bezaydi degan xulosasini bayon etadi. Bunda Farhodning mehnatsevarligini namuna qilib ko‘rsatadi.

Xamsa” da axloqiy qadriyatlar: hayo, vafo, saxovat, halollik ham o‘z ifodasini topgan. Shoir “Hayrat ul-abror” dostonining oltinchi maqolatini bevosita adab, tavozi’ va hayoga bag‘ishlab, xalq uchun mansab emas, aynan hayo bilan adab sharaf ekanini yozadi. “Xamsa”ning boshqa dostonlarida, xususan, “Farhod va Shirin”da hayo bilan bog‘liq ajoyib voqealar tafsilotini o‘qish mumkin.

Xulosa

Navoiy ijodi ilg'or g'oyalarning — gumanizm va xalqchillikning yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etishning mukammal namunasi. Navoiy asarlarining rang-barang va benihoyat boy obrazlarida qanday xilma-xil muammolar badiiy gavdalandirilmasin, qanchalik chuqur g'oyaviy-estetik mazmun ifodalanmasin, ularda Navoiy gumanizmining qandaydir yangi qirralari aks etadi, shoirning odam haqidagi ideali, ma'naviy-axloqiy konsepsiyasi o'z aksini topadi. “Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdankam topiladi”, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov. [III.7,47]

Inson yaralmishlar ichra eng aziz xilqatdir. Quruqlik va dengizlar ustida egalik qiladigan, pokiza rizq va fazl-u kamol ato etilgan, aql-u hush, nutq va farosat, bilim, tajriba, qalb-u his baxsh etilgan inson o'zining tafakkur va nutq qobiliyati bilan boshqa mavjudotlardan yuqori turishi va bu ayni vaqtda unga mukarramlig-u sharaf bag'ishlashi, yer yuzini obod qilish va uni boshqarib turishi uchun insonga sharaf ko'rsatilgani, unga aql-zakovat kuchi hadya etilgani Sharq mutafakkirlari tomonidan ko'p bor ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda insonni yanada yuksak pog'onaga ko'taradigan xislat-u fazilatlar ham borki, insonning qadr-qimmatini uning go'zal axloqiy fazilatlarini: qalbiy olijanoblik, sahovat va do'stlik fazilatlariga erishishga qodirligi bilan o'lchanadi. Navoiy o'z “Xamsa”sida umuminsoniy qadriyatlarni yuksak pafos bilan kuylar ekan, bunda u o'zidan oldin o'tgan buyuk mutafakkirlar, ulug' ijodkorlar fikrlariga tayanadi. Navoiyning ilg'or ijtimoiy qarashlari Sharq mutafakkirlari, jumladan, Arastu, Beruniy, Farobiy ta'limoti ta'sirida shakllandi. Navoiyning umuminsoniy qadriyatlarga munosabatida Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband kabi mutasavvuf, Jomiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy kabi shoirlar ta'siri yaqqol seziladi. Mutafakkir shoir o'zining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlarida, adolatli tuzum, atrof-muhitni muhofaza qilish, urush va tinchlik muammosiga munosabatida zamonasining ehtiyoji va talablarini ifodalab, o'zidan avval o'tgan ilg'or mutafakkirlarning orzu-umidlari va xayollarini mujassam bo'lgan

badiiy umumlashmalar yaratdi. Umuman, Farobiy, Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ulug‘bek, Jomiy va boshqa mutafakkirlarning diniy, ijtimoiy-falsafiy ta’limoti Navoiy dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar namoyoni va rivoji uchun ilmiy-nazariy asos bo‘ldiki, buni buyuk shoir “Xamsa”si misolida yaqqol guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Navoiy “Xamsa”sida ifoda etilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar andozasida Navoiy e’tiqodini asoslab berish mumkin. Ma’lumki, Navoiy butun ijodiy va ijtimoiy faoliyatini Vatan, millat, din, ilm–fan, ma’rifatni rivojlantirish ishiga baxsh etgan va bularning barchasi mutafakkir ijodi va faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan bayon etilgan asarlarida, xususan, “Xamsa”sida o‘z ifodasini topgan. Asarni o‘z ona tilida bitganligining o‘zi uning ona tili tagdiriga alohida ahamiyat berganligidan dalolat beradi. Ona tilining imkoniyat va qudratiga e’tiborsizlik bilan qarovchilarga, uni dag‘al til deb pastga uruvchilarga keskin qarshi chiqqan jonkuyar ijodkor ona tili uchun kurash har bir xalqning eng birinchi va muqaddas vazifasi ekanligini qayd qilish bilan birga, avvalo, o‘zi bu ishda namuna ko‘rsatib, “Xamsa”dek buyuk asarni turkiy tilda bitdi.

Navoiy turk xalqlarining birligi, tili va madaniyati uchun kurashar ekan, buni dostonlarga singdirib yubordi. Har bir kishining insoniylik burchi xalq g‘am-u tashvishi va farovonligi yo‘lida xizmat qilishda deb bilgan Navoiy umri davomida ana shu hadis mazmuniga amal qilganidek, butun umrini, ijodiy faoliyatini va mehnatini beminnat holda xalqqa, odamlarga ularning manfaati uchun sarfladi, “Xamsa”dagi Farhod va boshqa obrazlarni bu borada xalqqa namuna sifatida taqdim etdi. Saxovat, himmat, mehr-shafqat va muruvvatni insonning eng yuksak fazilatlari sifatida tarannum etib, ularni “Xamsa” obrazlari tabiatiga jo qilib yubordi.

Navoiy Iymonni insoniylik nishonasi deb bildi. “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da dastlabki bobni iymonga bag‘ishladi. Navoiy fikrlaridan kishilarni iymoniga qarabgina yaxshi va yomonga ajratish mumkin, degan fikr kelib chiqadi. Hazrat Alisher Navoiy uchun Iymon hayot-mamot

masalasi, u dunyoga ketar mahal kishiga yo‘ldosh bo‘la oladigan yagona sherik hisoblanganki, buni u “Xamsa”da to‘la-to‘kis bayon qila olgan.

“Xamsa”da ijtimoiy adolat, tenglik va shaxs erki masalasi ham alohida yuksak pafos bilan kuylanadi. Buni u odil shoh obrazi orqali berishga intiladi. Alisher Navoiy nazaridagi odil podshoh mamlakatni islom dini va Muhammad alayhissalom sunnatlari asosida adolat bilan boshqarishi; qat’iyatli bo‘lishi; davlat ishlariga kishilarni tayinlashdan oldin ularni har tomonlama sinovdan o‘tkazishi; siyosat yuritish va hukm chiqarishda ehtirolarga berilmay, aql ovozigacha quloq tutishi; zarur o‘rinlarda kechirimli bo‘lishi, ya’ni nohaqdan, tuhmat bilan aybdor deb topilgan kishilarga adolatpeshalik qilishi; hech qachon qalbida kin, adovat saqlamasligi, qasddan birovning aybini boshqa birovning bo‘yniga qo‘ymasligi, ya’ni xolis bo‘lishi; har bir ishni kengash asosida qilishi; doimo el-yurt ahvolidan, kayfiyatidan boxabar bo‘lishi; davlat ahamiyatiga molik har bir ishni o‘z vaqtida hal qilishi lozim edi. “Xamsa”da ta’rifi keltirilgan Shoh G‘oziy, Shoh Iskandar bu jihatdan xarakterlidir. Bu timsollar ayni vaqtda Navoiynin ideal shoh haqidagi tasavvurlari mevasi hamdir.

“Xamsa”da Navoiyning adolat g‘oyasi faqatgina shohlarga nisbatan emas, balki butun jamiyatning ma’naviy va siyosiy holatlariga nisbatan ham berilgan bahodan iborat umumiy qadriyatlar sifatida ifodalanadi.

Navoiy ijtimoiy tenglikni targ‘ib etar ekan, yer yuzidagi xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash masalasiga katta ahamiyat beradi, urushga qarshi turib, shaxs erki daxlsizligini uqtiradi. Har qanday urushni odam tabiatiga xilof deb bilgan va unga qarshi kurashishga, urush boshlovchilarni xaloyiq hukmiga topshirishga da’vat etgan mutafakkir munozarali masalalarni hal qilish vositalari sifatida urushdan, kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish xavfidan voz kechishni, bu masalani muzokaralar olib borish, sulh tuzish yo‘li bilan hal qilishni taklif etarkan, sulhning mazmuni va ta’sir kuchi g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligini o‘zining “Saddi Iskandariy” asarida falsafiy tarzda ifodalaydi. Bunda Navoiyning insonga va tinchlikka bo‘lgan samimiy va mislsiz munosabatini,

inson va tinchlik dushmanlariga, urush va talonchilarga cheksiz va murosasiz nafratini ochiq-oshkor bayon etadi.

“Xamsa”da do‘stlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat ham o‘ziga xos tarzda tarannum etiladi. Haqiqiy do‘stlikning oliy namunalari Shopur, Bahrom(Farhodning do‘sti), Navfal, Farrux va Axiy kabi timsollarda namoyon bo‘ladi. Bu timsollar kamtar, eng muhimi nasl va nasab manmanligidan batamom xoli ekanligi bilan ajralib turadilar hamda kimga yaqinlashib, u bilan do‘st tutinsalar, uning kimligi, ya’ni millat va e’tiqodi, mansab va boyligidan qat’iy nazar oxirigacha unga sodiq qolishlari bilan o‘quvchi kitobxonga namuna ko‘rsatadilar.

Navoiy atrof-muhitni muhofaza qilishga chaqirar ekan, inson yaratilishidan avval tabiatda monandlik borligini, agarda shu monandlikni uzsa, Bahrom va uning hamrohlari fojiasiga sherik bo‘lishiga “Sabbai sayyor” dostoni orqali ishora qiladi.

Navoiy halol mehnat qilishni kishining olijanob fazilatlaridan biri deb bilib, “Xamsa”da kishilarni mehnat qilishga, mehnatni puxta va o‘z vaqtida bajarishga undaydi, kishilik hayotida mehnatning rolga yuqori baho berib, “yuk chekmoq ila kishiga zebolik erur” derkan, mehnat kishini kamolotga yetkazadi, bezaydi degan xulosasini bayon etadi. Bunda Farhodning mehnatsevarligini namuna qilib ko‘rsatadi.

Xamsa” da axloqiy qadriyatlar: hayo, vafo, saxovat, halollik ham o‘z ifodasini topgan. Shoir “Hayrat ul-abror” dostonining oltinchi maqolatini bevosita adab, tavozu’ va hayoga bag‘ishlab, xalq uchun mansab emas, aynan hayo bilan adab sharaf ekanini yozadi. “Xamsa”ning boshqa dostonlarida, xususan, “Farhod va Shirin”da hayo bilan bog‘liq ajoyib voqealar tafsilotini o‘qish mumkin.

Insoniy fazilatlarining biri bo‘lgan vafoni Navoiy eng qimmatli gavharlardan ham noyob va qimmatliroq deb hisoblarkan, vafolik yor topish sharafiga erishgan bir gado, jahon shohlaridan baxtiyordir degan xulosaga keladi.

Navoiy “Xamsa”da saxovatni o‘z joyida, muhtoj–mustahiq odamga qilinishi

kerak degan g'oyani ilgari surib, g'arib va benavo, beva-bechora, yetimlar, qarovsiz qolgan qariyalar, tolibi ilm bo'lganlar, xullas, faqir-u haqir odamlarga mol berish o'rniga, "mubohat va manmanlik" yuzasidan hovuch-hovuch dur sochish bema'nilik va tentaklikdir, deb uqtiradi. Halollikni har bir ishda zarurlini ta'kidlaydi.

Navoiy "Xamsa"sida yuksak pafos bilan kuylangan umuminsoniy qadriyatlar bugungi kunda ham alohida ahamiyat kasb etadi, Ulug' mutafakkir "Xamsa"si nafaqat zamondoshlarimizga, balki keyin keladigan avlodlarga ham hayotdan, yashash ilmidan, insoniylik rutbasi ba uning tayanch ustunlari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlardan saboq beraveradi,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 8-dekabr 1992-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 29-avgust 1997-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 29-avgust 1997-yil.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

4. "Magistratura to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2007-yil 29-dekabrda 269-sonli buyrug'i bilan.
5. Ta'lim sohalari bo'yicha "Eng yaxshi bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi" Respublika tanlovi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida. Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008-yil 18-aprelda 104-sonli buyrug'iga 1-ilova.
6. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 10-sentabrda 190-sonli qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 160 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura – Toshkent: O'zbekiston, 1993. –174 b.

9. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi I-sessiyasida so‘zlagan nutq. 1990-yil, 24-mart.

IV. Asosiy adabiyotlar

10. Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1986. – 184 b.
11. Abdug‘ofurov A. Buyuk beshlik saboqlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989. – 172 b.
12. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV jildlar. –Toshkent: Fan, 1983-1985. I jild, 1983. – 656 b.; II jild, 1983 – 643 b.; III jild, 1984. – 624 b.; IV jild, 1985. – 636 b.
13. Hamidova M. Xamsa mavjlari. – Toshkent: Fan, 1986. – 54 b.
14. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – Toshkent: Fan, 1993. – 207 b.
15. Hayitmetov A., Zohidov B. Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981. – 159 b.
16. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. – 412 b.
17. Jalolov T. Xamsa talqinlari. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. – 142 b.
18. Karimov G‘.K. O‘zbek adabiyoti tarixi, 3-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – 172 b.
19. Mallayev N. Navoiy ijodiyotining xalqchil negizi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 112 b.
20. Mallayev N. So‘z san’atining gultoji. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 149 b.
21. Navoiy Alisher Xamsasi. A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – Toshkent: Fan, 1986.–142 b.
22. Navoiy Alisher. Devoni Foni. Asarlar, 5-tom, 2-kitob. – Toshkent:

- O'qituvchi, 1965. – 856 b.
23. Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. Nasriy bayon. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – 487 b.
24. Navoiy Alisher. Sabb'ai sayyor. Nasriy bayon. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 544 b.
25. Navoiy Alisher. Xamsa – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1960. – 987 b.
26. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1991. – 832 b.
27. Navoiy Alisher. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 592 b.
28. Navoiy Alisher. Farhod va Shirin. Ilmiy-tanqidiy matn. // Tuzuvchi: Porso Shamsiyev. – Toshkent, 1963. – B.153.
29. Navoiy Alisher. Lison- ut -tayr. – Toshkent: Fan. 1992. – 178 b.
30. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 438 b.
31. Navoiy Alisher. Mukammad asarlar to'plami. 20 tomlik T.11. – Toshkent: Fan. 1996. – 640 b.
32. Navoiy Alisher. Mukammad asarlar to'plami. 20 tomlik. – T.10. Toshkent: Fan. 1989. – 616 b.
33. Navoiy Alisher. Mukammad asarlar to'plami. 20 tomlik. T.8. – Toshkent: Fan, 1991. – 541 b.
34. Navoiy Alisher. Mukammad asarlar to'plami. 20 tomlik. T.7. – Toshkent: Fan. 1991. – 392 b.
35. Navoiy Alisher. Mukammad asarlar to'plami. 20 tomlik. T.9. – Toshkent: Fan, 1996. – 325 b.
36. Navoiy Alisher. Mukammad asarlar to'plami. 20 tomlik. T.6. – Toshkent: Fan, 1990. – 568 b.
37. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 6-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – B.318.

38. Navoiy Alisher. Munshaot. Asarlar. 15 tomlik. T.13. – Toshkent: Fan. 1966. –244 b.
39. Navoiy Alisher. Nazmul-javohir. – Toshkent: Fan. 1966. –244 b.
40. Nazarov K., Shayxova X. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 120 b.
41. Nizomov F. Alisher Navoiy dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar muammosi: Filol. fanlari nomz...diss. – Toshkent, 1996. – 153 b.
42. Oripov M.K. Gumanizm Alishera Navoiy-Toshkent: Fan, 1991. – 324 b.
43. Qayumov A. Alisher Navoiy. – Toshkent: Kamalak, 1991. – 175 b.
44. Valixo'jayev B. Xamsachilik an'anasining ayrim xususiyatlari. – Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981. – 158 b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

45. Komilov N. Tasavvuf va komil inson axloqi. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1996. – 133 b.
46. Abdurahmon Chomi. Haft avrang. Childi pancho'm –. Dushanbe, 1964, –372 b.
47. Abdurahmon Jomiy. Iskandar xiradnomasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 156 b.
48. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
49. Amir Temur Temur tuzuklari. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. –164 b.
50. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Fan, 1980. – 174 b.
51. Beruniy Abu Rayhon. Javohirlar. – Toshkent: Fan, 1966. – 537 b.
52. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968. – 486 b.
53. Fayzullayev O., Hoshimov E. Inson va tabiat. – Toshkent: Fan, 1976. 16 b.
54. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 782 b.

55. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lugʻat. – Toshkent: Fan, 1993. – 324 b.
56. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961. – 295 b.
57. Hayitmetov A. Tabarruk izlar izidan. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1979. – 125 b.
58. Hayitmetov A. Temuriylar davri oʻzbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1996. – 160 b.
59. Hayrullayev M. Uygʻonish davri va sharq mutafakkiri. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1971. – 175 b.
60. Ibrohimov S., Shamsiyev P. Navoiy asarlari uchun lugʻat. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1972. – 782 b.
61. Jaloliddin Davoniy Axloqi Jaloliy. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1992. – 72 b.
62. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2005. – 318 b.
63. Komilov N. Doʻstlik koʻpriklari. – Toshkent: Maʼnaviyat, 1982. – 188 b.
64. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr-Oʻzbekiston, 2009. – 444 b.
65. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoni. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994. – 254 b.
66. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1974. – 349 b.
67. Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2005. – 208 b.
68. Nazarov Q. Qadriyatlar tizimining barqarorligi va oʻzgarishlari. – Toshkent: Fan, 1993. – 14 b.
69. Nusratulla Jumaxoʻja, Adizova Iqboloy. Soʻzdin baqoliroq yodgor yoʻq. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1979. – 125 b.
70. Olimov S. Navoiy yoshlarga. – Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2008. – 103 b.
71. Tomas L., Gleni L. XV asrning oxirida temuriylar davrida fors sanʻati va madaniyati. – Vashington: Fan, 1989. – 234 b.

72. Xondamir. Makorim ul-axloq. . – Toshkent: O‘zbekiston, 1967. – 164 b.
73. Zayniddin Vosifiy. Badoe ul-vaqoe. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1986. – 433 b.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

74. Abdug‘ofurov A. Odil, orif, oqil // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1987. - №1. – B. 3.
75. Ahmedov T. Navoiy mehnat kuychisi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1965. - №1.
76. G‘afforov N. Hayrat ul- abrorda Abdulloh Muborak obrazi va nafis talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1998 - №4. – B.4.
77. G‘anixo‘jayeva N. Navoiy hikoyalarida ilm-ma’rifat masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1966 - №2. – B.11.
78. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodida umumbashariy qadriyatlar masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1991. - №4. B.3.
79. Hayitmetov A. O‘zbek adabiyotida xalqchillik va xalqchil uslub haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1993. - №1-2.
80. Jumaboyev Y. Navoiyning axloqiy qarashlari // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1991. - №2. B.3.
81. Mo‘minov I.M. Алишера Навои великий мислитель – просвтител // ибр. произ. 4 томах. Том I. – Toshkent: 1976. – 380 с.
82. Nazarov M. Navoiy ijodida adolat va xalqchillik masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1975. - №1.
83. Nazarov M. Navoiy ta’sirida xalq // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1974. - №1.
84. Nazarov M. Xamsa buyuk xalqchil asar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. - №2. – B.19.
85. Nazrullayeva S. Navoiy ijodida shaxs erki problemi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1980. - №1. – B.3.

- 86.Oqbo‘tayev B. Navoiy odil podshoh haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2002 - №6. – B. 3.
- 87.Oripov M. Navoiy ijodida adolat g‘oyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1973. - №1. – B. 3.
- 88.Oybek. Navoiy haqida // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – Toshkent, 1961 - №1. – B.4.
- 89.Qayumov A. Navoiy va Navoiyshunoslik // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1968 - №5. – B.4.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI

1. www.literature.uz.
2. www.navoi.uz.
3. www.ziyonet.uz.
4. www.ta'lim.uz
5. www.search.re.uz
6. www.pedagog.uz
7. www.ref.uz